


eular

fighting rheumatic & musculoskeletal  
diseases together

70 anniversary  
1947 - 2017



ILAR  
INTERNATIONAL LEAGUE of  
ASSOCIATIONS for RHEUMATOLOGY



# ASLO KECHIKTIRMANG, BUGUNOQ BOG'LACING

## "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" Kampaniya Vositalar to'plami

### Vositalar to'plami sharhi

EULAR tashabbusi bilan o'tkazilayotgan "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" aksiyasi, revmatik va tayanch-harakat a'zolari kasalliklarini (RTK) erta tashxislash va dalillarga asoslangan davolash usullaridan o'z vaqtida foydalanish, inson va jamiyatga kelgusidagi zarar va yuklarning oldini olish mumkinligini ta'kidlashga qaratilgan.

Kampaniya muvaffaqiyatlari bo'lishida bizga **sizning** yordamingiz zarur. «Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning»-RTKlar bilan hastalangan insonlar hayotini yaxshi tomonga o'zgartiradigan kuchli platforma bo'lib, RTKLarda ishlaydigan barchani – sog'liqni saqlash mutaxassis uyushmalari, tibbiyot birlashmalari va bemor guruhlarini – yagona maqsad sari ishlash uchun birlashtiradi.

Ushbu vositalar to'plami, **«Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning»** kampaniyasining umumiy ko'rinishini taqdim etib, kampaniya va bemorlarni qo'llab-quvvatlashga yordam beradigan asosiy yo'riqnomalar va materiallarni o'z ichiga oladi.

Ushbu qiziqarli kampaniya ustida siz bilan birgalikda ishlashni kutib qolamiz. Sizning qo'llab-quvvatlashingiz va hissangiz bilan biz ertaroq tashxishlash va davolanish imkoniyati uchun birgalikda ishlay olamiz!

### Vositalar to'plami tarkibi

1. EULAR haqida.
2. "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" umumiy ko'rinishi.
3. "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" kalit xabarları.
4. Brendlash va tasvirlar.
5. "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" plakati.
6. Butunjahon artrit kuni.
7. Foydali aloqa ma'lumotlari.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda  
kurashish #BugunoqBog'laning**

## **1.0 EULAR haqida**

Revmatizmga qarshi Yevropa ligasi (EULAR) – bu butun Yevropa bo'ylab artrit/revmatizm bilan xastalangan insonlar, revmatologiya sohasidagi sog'liqni saqlash mutaxassislari va butun Yevropa bo'ylab revmatologiya ilmiy jamiyatlarini o'zida jamlovchi notijorat tashkilotdir.

EULARning maqsadlari inson va jamiyat uchun RTKlar yukini kamaytirish va ularni davolash, oldini olish va reabilitatsiya qilishni yaxshilashga yo'naltirilgan. U tadqiqot yutuqlari va RTKlar bilan xastalangan insonlarni kundalik parvarishining yaxshilanishini targ'ib qilish va Yevropa boshqaruv organlari tomonidan RTKlar bilan xastalangan insonlarning ehtiyojlarini tan olinishi uchun kurashadi.

EULAR a'zolari tarkibiga ilmiy jamiyatlar (shu jumladan tibbiy jamiyatlar), sog'liqni saqlash professional uyushmalari, bemorlar tashkiloti, korporativ a'zolar va Yevropa bo'ylab RTKlar bilan xastalangan insonlar kiradi.

Qo'shimcha ma'lumot uchun quyidagi sahifaga kiring: [www.eular.org](http://www.eular.org)

## **2.0 "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning"**

*«Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning» kampaniyasining umumiyligi ko'rinishi quyidagilardan iborat:*

- *Kampaniya maqsadlari.*
- *Kampaniyaning mahalliy va global darajada ishga tushurilishi.*
- *Faoliyat xronologiyasi.*

## **2.1 "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" – nima?**

**"Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning"** – bu butun Yevropa va mahalliy miqyosda amalga oshirilgan kampaniya bo'lib, u odamlarni, jumladan, tibbiyot mutaxassislari, shifokorlar, jamoatchilik va siyosatchilarni RTKLarni erta tashxislash va dalillarga asoslangan davolash usullaridan o'z vaqtida foydalananish imkoniyatiga ega bo'lishga chaqiradi. Umumiy maqsad – RTKLarni asosiy kasalliklar va pandemiya darajasidagi aholi salomatligi muammosi sifatida ta'kidlash; shuningdek, erta tashxislash va o'z vaqtida davolanishga kirishish, inson va jamiyat uchun keyingi zarar va yuqlarning oldini olishi mumkinligini takidlayıdi.

Integratsiyalashgan kampaniya RTKLarda ishlaydigan shifokorlar, sog'liqni saqlash mutaxassis uyushmalari va bemor guruuhlarini bir-biriga bog'lab, erta tashxislashni kechiktiradigan to'siqlarni olib tashlashga yordam beradi. Yevropa va mahalliy darajada yagona xabarni birlashtirish va yetkazish, o'zgarishlarga ta'sir qildigan kuchli platformani ta'minlaydi.

Kampaniya boshlanishi EULARning 70 yilligiga to'g'ri kelib, bu o'tkazilgan tadqiqotlar va tibbiyot mutaxassislari, shifokorlar va bemorlar o'rtasidagi hamkorlikning 70 yilligini nishonlaydi.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish  
#BugunoqBog'laning**

## **2.2 Kampaniya maqsadlari**

“Aslo kechiktirmang, bugunoq bog‘laning” kampaniyasining maqsadlari quyidagilardan iborat:

- RTKLarni erta tashxislash va dalillarga asoslangan davolash usullaridan o‘z vaqtida foydalananish, inson va jamiyatga kelgusida yetkaziladigan zarar va og‘irliklarning oldini olish muhimligini ta‘kidlash.
- Erta tashxislashni kechiktiradigan to‘sqilarni yo‘q qilish. Jamiyat tomonidan bo‘g‘imlar parvashiga yetarlicha e’tibor yo‘qligi sababli, odamlar ko‘pincha kasalliklari alomatlari paydo bo‘lishi bilanoq shifokor yoki sog‘liqi saqlash mutaxassisiga murojaat qilmaydilar
- Kelgusidagi zararning oldini olish maqsadida, kasalliklarni imkon qadar erta va to‘g‘ri tashxislash va davolashda ta‘lim orqali sog‘liqi saqlash mutaxassislariga yordam berish (revmatologiya maktabiga muvofiq holda).
- RTKLarni erta tashxislash va o‘z vaqtida dalillarga asoslangan davolash bo‘yicha EULAR tavsiyalarini ta‘kidlash.
- Bemorlar o‘zlarinig shaxsiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, RTKLarni optimal darajada tashxislash va davolashga ega bo‘lishlarida, ularni qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish.

## **2.3 Kampaniyani ishga tushurilishi**

### **Global ishga tushurilish**

“Aslo kechiktirmang, bugunoq bog‘laning”ning global ishga tushurilishi **14-iyun kuni EULARning Madriddagi Kongressida** bo‘lib o‘tadi. EULAR prezidenti, professor Gerd R. Burmester EULAR Kongresining ochilish marosimida kongress delegatlarini kampaniya bilan tanishtiradi.

Bu kelgusida global tadbirdilar, jumladan, EULARning veb-saytiga kampaniya haqidagi ma’lumotlarni yan-gilab turish va press-relizlar orqali qo‘llab-quvvatlanadi.

### **Miliy ishga tushurilishi**

Global ishga tushirish bir qator milliy tadbirdilar bilan qo‘llab-quvvatlanadi. Milliy faoliyatga misollar quyidagilardan iborat:

#### **Lissabon siyosiy davra suhbatি**

Lissabondagi JABM (Jismoniy Aktivlikni Baholash Mezonlari) anjumanini bilan bir vaqtida, Portugaliya Revmatizmga Qarshi Ligasi fevral oyida erta tashxislash mavzusidagi siyosiy anjumanini o‘tkazdi. Tadbirning maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- Siyosatchilar va qaror qabul qiluvchilar orasida erta tashxislash va tibbiy yordam olish imkoniyatiga ega bo‘lish muhimligi haqida xabardorlikni oshirish.
- Erta yondashuv milliy strategiyasining iqtisodiy samaradorligi to‘g‘risidagi dalillarni taqdim etish.
- Fanlararo tarmoqning ahamiyatini ta‘kidlash va mustahkamlash.

Xabarni tarqatish va ushbu muhim mavzuni muhokama qilishga yordam berish maqsadida, tadbirda siyosatchilar, jurnalislari, shifokorlar, bemorlar va tibbiyot mutaxassislar qatnashdilar. Erta yondashuvni turli xil tomonidan muhokama qilishda bir qator ma’ruzachilar qatnashdilar, tингlovchilar esa ishtirok etish va savollar berish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi bиргаликда kurashish**  
**#BugunoqBog‘laning**

## Madrid tamoshasi

Madridda **13-iyun** kuni Madrid-Atocha temiryo'l vokzalida pilot tomoshasi bo'lib o'tadi. U huddi poyezdlar bog'langanlik g'oyasi kabi o'z vaqtida bog'lanishning ahamiyatiligi va vaqtida bog'lanmaslikning oqibatlarini ko'rsatishga qaratilgan. Albatta, siz o'zingizning poyezd aloqangizni o'rnatishingiz muhim hamda sog'lig'ingiz bilan bog'liq muammolarining bo'lsa, shifokor yoki sog'liqni saqlash mutaxassisi bilan bog'lanishingiz yanada muhimroq.

Tamosha Ispaniyaning bemorlar tashkiloti LIRE tomonidan, Sociedad Española de Reumatología va Ispaniyaning revmatologiya bo'yicha Open Reuma sog'liqni saqlash mutaxassislari uyushmasi bilan hamkorlikda o'tkaziladi. Erta tashxislash, o'z vaqtida dalillarga asoslangan davolash va RTKLarning jamiyatga bo'lgan ta'siri haqidagi xabardorlikni oshirish maqsadida, keng jamoatchilik vakillari bilan muloqtda bo'lish uchun ajoyib imkoniyat bo'ladi. O'quv materiallari tarqatiladi.

## Ko'ptarmoqli vebinlar

EULARning uchta ustunlari bo'lgan – sog'liqni saqlash sohasidagi mutaxassislari, ilmiy va bemorlar hamjamiyati uchun EULAR raisligi ostida **1 soatlik ikkita ko'ptarmoqli vebinlar** (iyun oyidan boshlab o'tkaziladi) ochiq bo'ladi. Turli vaqt zonalariga moslashtirilish va maksimal darajada ishtirokning ta'minlanishi uchun vebinar qayta takrorlanadi (bir xil tarkib va ma'ruzachilar bilan).

Vebinalarda (sog'liqni saqlash mutaxassislari, shifokorlar va bemorlar tashkilotlari) erta tashxislash va erta murojaat qilishning ahamiyati haqidagi mavzular, turli nuqtayi nazarlardan muhokama qilinadi. Siz ushbu vebinalar haqida batafsil ma'lumotni EULARning rasmiy taklifnomasi orqali olasiz. Agar siz ishtirok eta olmasangiz, sessiyani keyinroq yuklab olishingiz mumkin.

### **2.1 "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" kampaniya xronologiyasi**

Bu yilgi kampaniya faoliyatining asosiy sanalari bilan quyida tanishing:

#### Sanalar:

- **23–26-fevral:** JABM (Jismoniy Aktivlikni Baholash Mezonlari) anjumanı
- **May:** Vositalarni yetkazib berish
- **14–17-iyun:** EULAR kongressi Madridda, Ispaniya
  - **14-iyun:** "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" kampaniyasi kongress delegatlarini e'lon qildi
- **Iyun:** Ko'ptarmoqli vebinlar
- **12-oktyabr:** Butunjahon artrit kuni

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish**  
**#BugunoqBog'laning**

### 3.0 «Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning» kalit xabarlar

Ushbu kalit xabarlar EULARning barcha sog'liqni saqlash sohasidagi mutaxassis jamoalari uchun mo'ljallangan bo'lib, ulardan "Also kechiktirmang, bugunoq bog'laning" mavzusida muloqot o'tkazish yoki kampaniya harakatlari kabi tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanishingiz mumkin. Iltimos, erta tashxislash, erta murojaat qilish yoki «Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning» kampaniyasining har qanday muhokama taqdimotlarda ushbu kalit xabarlaridan foydalaning.

#### Kalit xabarlar

- "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning"- EULAR (Revmatizmga qarshi Yevropa Ligasi) tashabbusi bo'lib, uni EULARga a'zo bo'lgan barcha tarmoqlar, jumladan, ilmiy a'zo jamiyatlari, sog'liqni saqlash mutaxassis uyushmalari va JABM tashkilotlari qo'llab-quvvatlashi bilan birgalikda, asosiy maqsadi bu erta tashxislash va dalillarga asoslangan davolashdan o'z vaqtida foydalanish muhimligini ta'kidlashdan iborat.
- «Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning» aksiyasi keng jamoatchilik, tibbiyot mutaxassislari, shifokorlar va siyosatchilarga revmatik va tayanch-harakat tizimi kasalliklarini (RTKlar) erta tashxislash va dalillarga asoslangan davolanishdan o'z vaqtida foydalanish muhimligi haqida ma'lumot beradi.
- Erta tashxislash va erta davolanishga kirishish, RTKlarning inson va jamiyatga kelgusida yetkazadigan zarar va yuklarining oldini olish va kamaytirish kaliti hisoblanadi. Sog'liqni saqlash mutaxassislari ushbu tashxislash va davolash safarida muhim rol o'yinaydilar.
  - Agar revmatoid artritni simptomlar boshlanganidan keyin 12 hafta ichidayoq davolash boshlansa, bu vaqt o'tishi bilan bo'g'imlar yemirilishini minimum darajaga keltrishi va remissiya ehtimolini oshirishi mumkin<sup>1</sup>.
  - Bu kasallikka chalingan 4 kishidan 3 tasida fibromiyalgiya tashxisi qo'yilmagan. Tashxis qo'yishga esa o'rtacha 5 yil vaqt ketadi<sup>2</sup>.
  - Vaqtida ta'minlangan ma'lumot, jismoniy mashqlar va ortiqcha vaznni kamaytirish osteoartrit oqibatida kelib chiquvchi og'riq, nogironlik va hamroh kasalliklar xavfini hamda bo'g'imlarni jarrohlik yo'li bilan almashtirish ehtiyojini kamaytiradi<sup>3,4,5</sup>.
- Sog'liqni saqlash mutaxassislari quydigilarni oshirishlari mumkin:
  - RTK belgilari bo'lgan bemorlarni erta tashxislash uchun shifokorlarga yuborilish darajalarini.
  - Samarasiz davolash usullari orqali kelib chiqadigan zarar va kechikishlarning oldini olish uchun dalillarga asoslangan davolash usullaridan foydalanishni.

<sup>1</sup> Van der Linden MP va boshqalar. Erta artritli bemorlarni baholashda kechikishning uzoq muddatli ta'siri. Artrit Rheum 2010; 62 (12): 3537–46

<sup>2</sup> Arnold LM va boshqalar. Fibromiyalgiyaning tan olinishi va diagnostikasini yaxshilash. Mayo Clin Proc 2011; 86 (5): 457–64

<sup>3</sup> Altman RD. Osteoartritni erta davolash. Am J Managed Care 2010;16:S41–7

<sup>4</sup> Anandacoomarasamy A & March L. Osteoartritni davolash uchun hozirgi dalillar. Ther Adv Musculoskel Dis 2010;2:17–28

<sup>5</sup> Fernandes, L. va boshqalar. Son va tizza osteoartritini farmakologik bo'lmagan asosiy davolash uchun EULAR tavsiyalari. Ann Rheum Dis 2013;72:1125–1135

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish  
#BugunoqBog'laning**

## Yordamchi xabarlar

- RTKlar bilan faqat Yevropaning o'zida 120 milliondan ortiq odam aziyat chekadi – bu boshqa kasallik guruhlariga qaraganda ko'proqdir<sup>6</sup>.
- RTKlar barcha yoshdagi insonlarga, shu jumladan bolalar va chaqaloqlarga ta'sir qilib, kerakli davo muolajalari o'tkazilmasa, u yurish, zinapoyalarga chiqish, ovqat pishirish, shaxsiy gigiyena va ishlash kabi kundalik faoliyatga ta'sir qilib – hayot sifatini pasaytiradi<sup>7</sup>.
- Agarda Yevropa Ittifoqida, RTKlar bilan kasallangan odamlar uchun erta aralashuvlar kengroq tatbiq qilinganda, har kuni qo'shimcha bir million xodim ishda bo'lishi mumkin bo'lar edi<sup>8</sup>.
- Aholining qarishi va semizlik darajasining ortishi artrit kasalliklarining ko'payishiaga olib keladi<sup>9</sup>.
- RTKlar bilan og'rigan odamlar orasida klinik tashvish va depressiyaning tarqalishi, umumiyligi aholi orasida tarqaganligiga nisbatan taxminan ikki baravar ko'pdir<sup>10</sup>.
- Kampaniyaning ishga tushurilishi EULARning 70 yilligiga to'g'ri kelib, bu shifokorlar, sog'lioni saqlash mutaxassislari va bemorlar o'tasidagi 70 yillik tadqiqotlar va hamkorlikni nishonlaydi.
- Qo'shimcha ma'lumot uchun EULAR veb-saytiga tashrif buyuring: [www.eular.org](http://www.eular.org)

## Butunjahon artrit kunining kalit xabarları

- Butunjahon artrit kuni global tashabbus bo'lib, EULAR tomonidan boshqariladi va kengroq bo'lgan "Aslo Kechiktirmang, bugunoq bog'laning" kampaniyasining bir qismini tashkil qildi.
- Butunjahon artrit kuni maqsadi – bu RTKlar bilan xastalangan insonlar muammo-lari haqidagi xabardorlikni oshirish uchun odamlarni o'zaro birlashtirishdir va bu kun har yili 12-oktabrda nishonlanadi.
- Qo'shimcha ma'lumot uchun EULAR veb-saytiga tashrif buyuring: [www.worldarthritisday.org](http://www.worldarthritisday.org)

<sup>6</sup> Revmatik kasalliklar bo'yicha savollar va javoblar. EULAR. Mavjud:<http://www.eular.org/myUploadData/files/Q-and-A-on-RMDs.pdf>

<sup>7</sup> Revmatik kasalliklar haqida bilsilingiz kerak bo'lgan 10 ta narsa. EULAR. mavjud: <https://www.eular.org/myUploadData/files/10%20things%20on%20RD.pdf>

<sup>8</sup> Yangi tadqiqot shuru ko'satadiki, har kuni bir million Yevropa Ittifoqi ishchilarining kasal bo'lish ta'sirini sezilarli darajada kamaytiradigan aralashuv. Ish uchun Yevropaga mos. mavjud: <http://blog.fitforworkeurope.eu/2013/10/16/new-study-reveals-intervention-that-could-significantly-reduce-impact-of-one-million-eu-workers-needlessly-off-sick-each-day/>

<sup>9</sup> Artritli kattalar soni o'sishda davom etmoqda, CDC hisobotlari. Bugungi kunda fibromiyalgija yangiliklari. mavjud: <https://fibromyalgianewstoday.com/2017/03/10/number-of-us-adults-with-arthritis-continues-to-increase-cdc-says/>

<sup>10</sup> Geenen R va boshqalar. Revmatik kasalliklar va tashvish yoki depressiya bilan og'rigan bemorlar uchun psixologik aralashuvlar. Eng yaxshi amaliyat va tadqiqot klinik revmatologiya 2012;26:305-19

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish**  
**#BugunoqBog'laning**

#### 4. Brendlash va tasvirlar

*Bu bo'limda kampaniyani qo'llab-quvvatlash maqsadida sizning foydalanishingiz yoki moslashtirishingiz uchun ishlab chiqilgan materiallar shakli taqdim qilingan*

Kampaniya logotipi kampaniya davomida, siz rejalashtishni istagan tadbirdarda va har qanday taqdimotlarda foydalanishingiz uchun ishlab chiqilgan. Moslashtirish/tarjima qilish uchun yuqori aniqlikdagi tasvirlar va badiiy fayllar mavjud.

**Maslahat:** kalit xabarlari materiallar/taqdimotlarni ishlab chiqishni boshlash uchun ajoyib joydir.

#### **Kampaniya logotipi**



Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish  
**#BugunoqBog'lanning**

## 5.0 “Aslo kechiktirmang, bugunoq bog’laning” plakati

Kampaniyaning kalit xabarlari haqida umumiy ma'lumot beruvchi o'quv plakati ishlab chiqildi.

Tasvirli fayllari ushbu vositalar to'plamining bir qismi sifatida tarjima qilish va moslashtirish uchun mavjud.

Bemorlar bilan muhokama qilishda, yordamchi sifatida uni chop etishingiz va klinikangiz devoriga osib qo'yishingiz mumkin.



“Aslo kechiktirmang, bugunoq bog’laning” – EULAR (Revmatizmga qarshi Yevropa Ligasi) tashabbusi bo’lib, uni EULARga a’zo bo’lgan barcha tarmoqlar, jumladan, ilmiy a’zo jamiatlari, sog’ligni saqlash mutaxassis uyunshmlari va JABM tashkilotlari qo’llab-quvvatishni bilan birgalikda, asosiy maqsadi bu erta tashxislash va dalilarga asoslangan davolashdan o’z vaqtida foydalanish muhimligini ta’kidishdan iborat

**Revmatik va tayanch-harakat a’zolari kasalliklarining 200 ga yaqin turi mavjud bo’lib, u barcha yoshdag‘i insonlarga ta’sir qilishi mumkun.**

**Ecta tashxislash va erta davolanisiga kirishish, RTKlarning inson va jamiyatga kelgusida yetkazadigan zarar va yukularining oldini olish kaliti hisoblanadi.**

Agar o’zingizda RTKa shubha qilayotgan bo’lsangiz, mutaxassisiga murojaat qiling.



**RTKlarni davolashda quyidagi mutaxassislarni jalb qilish mumkun:**

Umumiy amaliyat shifokorlari, Revmatologlar, boshqa soha mutaxassislari – fizioterapevtlar, terapevtlar, hamshiralr, Og’riq bo’ycha mutaxassislar – fizioterapevtlar, pediatrlar, ijtimoiy ishchilar.

Bemorlar RTKlar sohasidagi oxirgi ilmiy yutuqlarga asoslangan davolanişdan kechiktirilmagan holda foydalanish huquqiga egadirlar.

**EULARning Aslo kechiktirmang, bugunoq bog’laning aksiyasi bilan RTKlar haqida ko’proq ma'lumot olish va mahalliy**

- JABM bemor tashkilotlari
- Tibbiy/Ilimiy tashkilotlar

...erta murojaat va tashxislashni yo’iga qoyish mumkun.

Bemorlar RTKlar sohasidagi oxirgi bilan bog’lanib ilmiy yutuqlarga asoslangan davolanişdan kechiktirilmagan holda foydalanish huquqiga egadirlar.

## #BugunoqBog’laning

## **6. Tadbir bo'yicha ko'rsatma**

*Ushbu bo'limda kampaniya tadbirlarini rejalashtirish bo'yicha ko'rsatmalar,  
jumladan, siz o'tkazmoqchi bo'lgan tadbirlar turiga misollar keltirilgan.*

«Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning» dasturini qo'llab-quvvatlash maqsadida, tadbirni rejalashtirish yoki qo'llab-quvvatlash istagi bilan siz kampaniya haqidagi ma'lumotni RTK hamjamiyati orasida va yanada kengroq qatlamlarda tarqatishga yordam berishingiz mumkin.

Tadbirni tashkil qilishda sizga boshqa mahalliy sog'liqni saqlash sohasidagi mutaxassislar, tibbiyot hamjamiyatlari va bemorlar tashkiloti bilan hamkorlik qilishingizni qat'iy tavsiya qilamiz.

Shuningdek, siz mahalliy JABM tashkilotingiz bilan bog'lanib, ular jamoatchilikni xabardor qilish tadbirini rejalashtirayotgani haqida bilishingiz va ularga beriladigan yordamingiz haqida aniqlik kiritishning mumkin. Mamlakatingizda tadbirni qo'llab-quvvatlash yoki o'tkazish bo'yicha quyidagi ba'zi ko'rsatmalarni topishingiz mumkin.

### **6.1 Mahalliy JABM tashkilotingiz tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarni qo'llab-quvvatlash**

Agar sizning mahalliy JABM tashkilotingiz jamoatchilikni xabardor qilish tadbirini o'tkazayotgan bo'lsa, sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislari tomonidan yordam berishning bir necha yo'llari mavjud:

1. Mahalliy JABM tashkilotingiz bilan bog'lanib, ularning rejalar haqida xabardor bo'ling.
2. Ertashxislash yoki dalillarga asoslangan davolanishga o'z vaqtida kirishish bo'yicha hamkorlik qilish haqida o'tkaziladigan boshlang'ich muhokamalarda qatnashing.
3. Mahalliy JABM(Jismoniy Aktivlikni Baholash Mezonlari) tashkilotlari tomonida tadbir qo'llanmalari tayyorlanish jarayonida, erta tashxislash bo'yicha foydali tadqiqot ma'lumotlarining bilan ublishing.
4. Tadbir va ommaviy axborot vositalarida nutq so'zlash uchun ilmiy vakil sifatida chiqishni o'ylab ko'ring.

### **6.2 O'z tadbiringizni o'tkazishda ahamiyatli jihatlar:**

Tadbirni tashkilashtirishda e'tibor berishingiz kerak bo'ladigan ba'zi ko'rsatmalarni quyida topishingiz mumkin:

- Siz o'z mamlakatingizda RTKLarni erta tashxislash va yuborish masalalarini muhokama qilish uchun, RTK hamjamiyatining asosiy vakillari ishtirokida davra suhbati yoki anjuman kabi tadbirni o'tkazishingiz mumkin.
  - Siz erta tashxislash bo'yicha so'nggi tadqiqot natijalari va tegishli statistik ma'lumotlar bilan bo'lishishingiz mumkin.
- Siyosatchilar, jurnalistlar, bemor vakillari, sog'liqni saqlash soha mutaxassislari va shifokorlarni RTKLarga tushadigan yuk va erta tashxislashning ahamiyatligini muhokama qilish uchun tadbirda qatnashishga taklif qiling.
- erta tashxislash va tibbiy yordam olish muhimligi haqidagi mavzularni yoritishda asosiy ma'ruzachilarni qo'shing, shuningdek, tinglovchilarga savollar berish imkoniyatini yaratting.
- Siz tadbir diqqatini ma'lum bir mavzu yoki holatga yoki yanada kengroq bo'lgan barcha RTKLarning erta tashxislash mavzusiga qaratishingiz mumkin.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi bиргаликда курашиб**  
**#BugunoqBog'laning**

- Tadbiringiz doirasida ishtirokchilarni kichik guruhlarga ajratib, aqiliy hujum yoki munozaralardan iborat seminar mashg'ulotlari yoki seksiyalarni o'tkazishingiz mumkun (buning uchun bo'sh joyni hisobga oling).
- Agar siz allaqachon tadbirda ishtirok etayotgan bo'lsangiz, RTKlar yuki va erta tashxislash va dalillarga asoslangan davolanishga o'z vaqtida kirishishning ahamiyati mavzusidagi ko'p tarmoqli panel muhokamasini qo'shishni ko'rib chiqishingiz mumkin.
  - Bu borada Portugaliyaning Lissabonda qilingan ishlariga misol tariqasida 2.3-bo'limiga qarang.

### **Tadbiringiz vaqtি**

Global kampaniyaning ishga tushurilishi EULAR kongressida (14-iyun kuni) bo'lib o'tadi, Ispaniyada ham bir vaqtning o'zida o'tkaziladi. Mahalliy tadbiringizni muhim ahamiyatga ega bo'lgan Butunjahon artrit kuni yoki milliy xabardorlik kunda o'tkazishingizni tavsiya qilamiz.

Tadbir vaqtি ham muhim ahamiyatga ega – hamma asosiy mehmonlar va ma'ruzachilarin-gizning davra suhbatи yoki anjumanda ishtiroki ta'minlanishiga e'tibor qarating.

### **Odamlarni tadbiringizda ishtirok etishga taklif qiling**

RTK hamjamiatining asosiy a'zolarining ishtiroki haqida o'ylab ko'ring. Tadbiringizda qatnashuvchi ma'ruzachilarining soni va shaxsi haqida o'ylab, ularni oldindan ogohlantirib qo'ying.

Siz odamlarni quyida berilgan ma'lumotlarni ko'rsatgan holda elektron pochta yoki xat orqali taklif qilishingiz mumkin:

- Tadbirning joyi, sanasi va vaqtি.
- Uchrashuvning kun tartibi.
- Kiyinish dress kodи bo'yicha tafsilotlar (agar kerak bo'lsa).
- Taklifnomaga javob tavsilotlari, shu jumladan sizning aloqa ma'lumotlaringiz va ularning ma'lumotlarini so'rang.

Materiallaringizda kampaniya logotipidan bemalol foydalanishingiz mumkun.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish**  
**#BugunoqBog'lanning**

## 7.0 Butunjahon artrit kuni

*Ushbu bo'limda 2017-yildagi Butunjahon artrit kuni faoliyatiga oid ma'lumotlar berilgan bo'lib, u yanada kengroq bo'lgan «Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning» kampaniyasiga mos ravishda yoritilgan.*

Butunjahon artrit kuni (BAK) – bu revmotoid artrit va osteoartrit kabi yaxshi tanilgan kasalliklardan tortib, to kamchilikka tanilgan fibromiyalgiya kabi RTKLarning barcha shakllari bilan xastalangan insonlar muammolari haqida xabardorlikni oshirishda, odamlarni o'zaro birlashtiruvchi global tashabbusdir.

Har yili 12-oktabr BAK kuni deb tan olingen. BAK yanada kengroq bo'lgan «Also kechiktirmang, bugunoq bog'laning» kampaniyasining bir qismi bo'lib hisoblanadi.

BAK maqsadlari:

- Tibbiy hamjamiyat, RTKLar bilan xastalangan insonlar va keng jamoatchilik orasida RTKLar haqidagi xabardorlikni oshirish.
- Qaror qabul qiluvchilarni RTKLarning yuki va ularni yengillashtirish bo'yicha ko'rildigan chora-tadbirlar haqida xabardorligini oshirish orqali ommaviy siyosatga ta'sir o'tkazish.
- RTKli barcha odamlar va ularning g'amxo'rlarini ular uchun mo'ljallangan keng ko'lamli qo'llab-quvvatlash tizimi mavjudligi haqida xabardor qilish.

### **Butunjahon artrit kuni sa'y-harakatlarning markazida – bizning kampaniya videoroligini tayyorlash va tarqatish muhim o'rinn tutadi**

Video odamlarni o'zlarining sog'lioni saqlash mutaxassisiga va shifokori bilan erta aloqa o'rnatishga undaydi va erta tashxis qo'yish va to'g'ri davolash muhimligini yana bir bor ta'kidlaydi. Ushbu video BAK veb-saytida va ijtimoiy media kanallarida 12-oktabrdan boshlab ko'rsatila boshlaydi va mahalliy faoliyattingizda foydalanishingiz uchun sizga taqdim qilinadi (12-oktabrgacha embargo ostida). Butunjahon artrit kuni yoki unga yaqin sanalarda "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" tadbirlarini o'tkazishni o'ylab ko'ring, chunki bu xabardorlikni oshirishga yordam beradigan ajoyib platformadir.

Biz sizni rasmiy BAK veb-sayti, Facebook va Twitter kanallari orqali qo'llab-quvvatlay olishimiz uchun har qanday kampaniya faoliyattingiz haqida bizga xabar bering.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish  
#BugunoqBog'laning**

## **8. Foydali aloqa ma'lumotlari**

Quyida foydali aloqlar ro'yxati keltirilgan. "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" aksiyasi yoki uni qanday qo'llab-quvvatlashingiz haqida savollaringiz bo'lsa, bizga murojat qiling.

**Maria Batziou, EULAR Sekretariati**

**Loyiha koordinatori**

**Tel:** +30 694 623 2776

**Email:** [Maria.Batziou@eular.org](mailto:Maria.Batziou@eular.org)

**Birte Gluesing, EULAR Sekretariati**

**Loyiha menejeri**

**Tel:** +49 228 962 12 83

**Email:** [Birte.Gluesing@eular.org](mailto:Birte.Gluesing@eular.org)

**Lydia Tchambaz, EULAR Sekretariati**

**Ijrochi direktor o'rinnbosari**

**Tel:** +41 44 716 30 33

**Email:** [Lydia.Tchambaz@eular.org](mailto:Lydia.Tchambaz@eular.org)

**Ursula Aring, EULAR Sekretariati**

**Aloqa menejeri**

**Tel:** +41 44 716 30 38

**Email:** [Ursula.Aring@eular.org](mailto:Ursula.Aring@eular.org)

**Kristina Opava, Karolinska instituti**

**Professori**

**Tel:** +46 8524 888 80

**Email:** [Christina.opava@ki.se](mailto:Christina.opava@ki.se)

**Barchaga yordamingiz uchun tashakkur bildiramiz!**

Biz siz bilan kelgusida erta tashxislash haqidagi xabardorlikni oshirish va RTKlar bilan kasallanganlarning hayot sifatini yaxshilashga yordam berish uchun hamkorlik qilishni kutib qolamiz.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish**  
**#BugunoqBog'laning**

## "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" kampaniya vositalar to'plami

### Vositalar to'plami sharhi

EULAR tashabbusi bilan o'tkazilayotgan "Aslo kechiktirmang, bugunoq bo'g'laning" aksiyasi, revmatik va tayanch-harakat a'zolari kasalliklarini (RTK) erta tashxislash va dalillarga asoslangan davolash usullaridan o'z vaqtida foydalananish, inson va jamiyatga kelgusidagi zarar va yuklarning oldini olish mumkinligini ta'kidlashga qaratilgan.

Kampaniya muvaffaqiyatlari bo'lishida bizga sizning yordamingiz zarur. "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" – RTKlar bilan xastalangan insonlar hayotini yaxshi tomonga o'zgartiradigan kuchli platforma bo'lib, RTKlarda ishlayshtirish barchani – bemor guruhlari, tibbiyot birlashmalari va sog'lqnini saqlash mutaxassis uyushmalarini – yagona maqsad sari ishslash uchun birlashtiradi.

Ushbu vositalar to'plami, "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" kampaniyasining umumiyo ko'rinishini taqdim etib, u sizga mamlakatingizda faoliyat boshlashningiz va unda ishtirok etishingizga yordam beradigan asosiy yo'riqnomalar va materiallarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, siz Butunjahon artrit kuni tadbirlarini keng ko'lamli kampaniya doirasida o'tkazish haqida ma'lumot olishingiz mumkin.

Ushbu qiziqarli kampaniya ustida siz bilan birgalikda ishslashni kutib qolamiz. Sizning qo'llab-quvvatlashningiz va hissangiz bilan biz ertaroq tashxishlash va davolanish imkoniyati uchun birgalikda ishlay olamiz!

### Vositalar to'plami tarkibi

1. EULAR haqida.
2. "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning".
3. "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" kalit xabarlar.
4. Brendlash va tasvirlar.
5. Ommaviy axborot vositalari bilan ishslash tartibi.
6. Tadbir bo'yicha ko'rsatma.
7. Ijtimoiy tarmoqlar bo'yicha ko'rsatmalar.
8. Butunjahon artrit kuni.
9. Foydali aloqa ma'lumotlari.
10. Ilova.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish  
#BugunoqBog'laning**

# eular

Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga  
qarshi birgalikda kurashish

**70**  
yilligi  
1947 – 2017

## 1.0 EULAR haqida

Revmatizmga qarshi Yevropa ligasi (EULAR) – bu butun Yevropa bo'ylab artrit/revmatizm bilan xastalangan insonlar, revmatologiya sohasidagi sog'liqni saqlash mutaxassislari va butun Yevropa bo'ylab revmatologiya ilmiy jamiyatlarini o'zida jamlovchi notijorat tashkilotdir.

EULARning maqsadlari inson va jamiyat uchun RTKlar yukini kamaytirish va ularni davolash, oldini olish va reabilitatsiya qilishni yaxshilashga yo'naltirilgan. U tadqiqot yutuqlari va RTKlar bilan xastalangan insonlarning kundalik parvarishining yaxshilanishini targ'ib qilish va Yevropa boshqaruvi organlari tomonidan RTKlar bilan xastalangan insonlarning ehtiyojlarini tan olinishi uchun kurashadi.

EULAR a'zolari tarkibiga ilmiy jamiyatlar, sog'liqni saqlash professional uyushmalari, bemorlar tashkilotlari, korporativ a'zolar va Yevropa bo'ylab RTKlar bilan xastalangan insonlar kiradi.

2017-yil EULARning 70 yilligiga to'g'ri kelib, bu o'tkazilgan tadqiqotlar va tibbiyot mutaxassislari, shifokorlar va bemorlar o'rtaсидagi hamkorlikning 70 yilligini nishonlaydi.

Qo'shimcha ma'lumot uchun quyidagi sahifaga kiring: [www.eular.org](http://www.eular.org)

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish**  
**#BugunoqBog'laning**

## 2.0 "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning"

«Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning» kampaniyasining umumiy ko'rinishi quyidagilardan iborat:

- Kampaniya maqsadlari.
- Kampaniyaning mahalliy va global darajada ishga tushurilishi.
- Faoliyat xronologiyasi.



## 2.1 "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" – nima?

"Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" – bu butun Yevropa va mahalliy miqyosda amalga oshirilgan kampaniya bo'lib, u odamlarni, jumladan, tibbiyot mutaxassislari, shifokorlar, jamoatchilik va siyosatchilarni RTKLarni erta tashxislash va dalillarga asoslangan davolash usullaridan o'z vaqtida foydalanish imkoniyatiga ega bo'lismiga chaqiradi. Umumiy maqsad – RTKLarni asosiy kasalliklar va pandemiya darajasidagi aholi salomatligi muammosi sifatida ta'kidlash; shuningdek, erta tashxislash va o'z vaqtida davolanishiga kirishish, inson va jamiyat uchun keyingi zarar va yuklarning oldini olishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Integratsiyalashgan kampaniya RTKLarda ishlaydigan shifokorlar, sog'liqni saqlash mutaxassis uyushmalari va bemor guruhlarini bir-biriga bog'lab, erta tashxislashni kechiktiradigan to'siqlarni olib tashlashga yordam beradi. Yevropa va mahalliy darajada yagona xabarni birlashtirish va yetkazish, o'zarishlarga ta'sir qiladigan kuchli platformani ta'minlaydi.

Kampaniya boshlanishi EULARning 70 yilligiga to'g'ri kelib, bu o'tkazilan tadqiqotlar va shifokorlar, sog'liqni saqlash mutaxassislari va bemorlar o'rtaсидаги hamkorlikni nishonlaydi.

## 2.2 Kampaniya maqsadlari

"Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" kampaniyasining maqsadlari quyidagilardan iborat:

- RTKLarni erta tashxislash va davolanishdan o'z vaqtida foydalanish, inson va jamiyatga kelgusida yetkaziladigan zarar va og'irliklarining oldini olish muhimligini ta'kidlash.
- Erta tashxislashni kechiktiradigan to'siqlarni yo'q qilish. Jamiyat tomonidan bo'g'imir parvarishiga yetarlicha e'tibor yo'qligi sababli, odamlar ko'pincha kasallik alomatlari paydo bo'lishi bilanoq shifokor yoki sog'liqni saqlash mutaxassisiga murojaat qilmaydilar.
- Birgina Yevropaning o'zida 120 milliondan ortiq insonlarga ta'sir qiluvchi RTKLarning ko'plab turi mavjudligi haqida keng jamoatchilikni xabardor qilish.
- RTKLar har qanday yoshda paydo bo'lishi mumkinligi haqida xabardorlikni oshirish – bolalar va yoshlar jiddiy zarar ko'rishi mumkin.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish**  
**#BugunoqBog'laning**

## 2.3 Kampaniyaning ishga tushurilishi

### **Global ishga tushurilishi**

“Aslo kechiktirmang, bugunoq bog’laning”ning global ishga tushurilishi **14-iyun kuni EULARning Madriddagi Kongressida** bo’lib o’tadi. EULAR prezidenti, professor Gerd R. Burmester EULAR Kongres-sining ochilish marosimida kongress delegatlarini kampaniya bilan tanishtiradi.

Kampaniya haqidagi ma’lumotlar EULAR veb-saytiga kiritiladi.

### Miliiy ishga tushurilishi

Milliy tadbirdilar kampaniya muvaffaqiyatining kalitidir. Mahalliy darajada ta’sir o’tkazish uchun bizga sizning yordamingiz zarur!

Mamlakatingizda kampaniyani amalga oshirish bo'yicha turli xil g'oyalarga misollar quyida keltirilgan.

### Ommaviy informatsion namoyish

- Namoyishni jamoat joyida o’tkazish ommaviy e’tiborni o’ziga tortadi, bu esa keng jamoatchilik orasida erta tashxislash muhimligi haqida xabardorlikni oshirishning ajoyib usuli hisoblanadi.
- Har qanday alomatlar paydo bo’lishi bilanoq shifokor yoki sog’lijni saqlash mutaxassisiga murojaat qilish hayotiy ahamiyatiga ega jarayondir, shuning uchun keng jamoatchilik ushu kampaniyaning asosiy auditoriyasi bo’lib hisoblanadi.
- Faoliyatizingiz haqida mahalliy ommaviy axborot vositalariga xabar berib, ular orqali yoritishingiz mumkin.
- Tadbiringizni ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatishingiz mumkin.
- Madridda bo’lib o’tayotgan ommaviy tadbir misoli tariqasida 5.0-bo’limiga qarang.

### Sog’lijni saqlash mutaxassisii/shifokor/siyosiy tadbir

- Asosiy manfaatdor tomonlarni jalg qilish uchun anjuman yoki davra suhbati o’tkazish.
- Ertas tashxislash va tibbiy yordam olish muhimligi haqidagi mavzularni yoritishda asosiy ma’ruzachilarini qo’shish, shuningdek tinglovchilarga savollor berish imkoniyatini yaratish.
- Tadbiriga siyosatchilar, jurnalistlar, shifokorlar va sog’lijni saqlash sohasi mutaxassisilarini taklif qilishingiz mumkin.
- Bu borada Portugaliyaning Lissabonda qilingan ishlariiga misol tariqasida 5.0-bo’limiga qarang.

Barcha JABM (Jismoniy Aktivlikni Baholash Mezonlari) tashkilotlari uchun bir qator oylik vebinarlar (iyundan – oktabr oyigacha) o’tkaziladi, ular orqali kampaniyaning muvaffaqiyatlari faoliyatiga oid amaliy tadqiqot va ilg’or tajriba misollari bilan o’zaro bo’lishiladi. Boshqalarni ilhomlantirish maqsadida o’z tajribangiz va izlanishlaringiz bilan o’toqlashishingizni xush qarshilab qolamiz!

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish**  
**#BugunoqBog’laning**

## 2.4 "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" kampaniya xronologiyasi

Bu yilgi kampaniya faoliyatining asosiy sanalari bilan quyida tanishing:

### **Sanalar:**

- **23–26-fevral:** JABM (Jismoniy Aktivlikni Baholash Mezonlari) anjumani.
- **Mart:** Vositalarni yetkazib berish.
- **13-iyun:** Madridning Atocha poyezd stansiyasidagi "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" ommaviy tadbiri.
- **14–17-iyun:** EULAR kongressi Madridda, Ispaniya.
  - **14-iyun:** "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" Kampaniyasi kongress delegatlarini e'lon qildi.
- **Iyun – oktrabr:** JABM guruhlari bilan oylik vebinarlari.
- **Augrust oxiri / Sentabr oyi boshi:** Kampaniya videosi – batafsil ma'lumot uchun 14-betga qarang – embargoga ega JABM tashkilotlari bilan bo'lishiladi.
- **12-oktyabr:** Butunjahon artrit kuni.
- **12-oktyabr:** Kampaniya videosi BAK veb-saytida va EULAR/BAK ijtimoiy kanallarida ishga tushiriladi va JABM hamjamiyati tomonidan keng tarqatiladi.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish**  
**#BugunoqBog'laning**

### **3.0 «Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning» kalit xabarlari**

Ushbu matn tariqasida tayyorlangan kalit xabarlari EULARning barcha JABM a'zo tashkilotlari uchun mo'ljallangan bo'lib, ulardan asos sifatida "Also kechiktirmang, bugunoq bog'laning" mavzusidagi veb-saytlarni yangilish, varaqalar, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar kabi materiallarni ishlab chiqishda foydalanishingiz mumkin. Ulardan ommaviy axborot vositalari bilan suhbatalshishda ham foydalanish mumkin.

Agar, vaqtningiz yoki joyingiz yetarlicha bo'lmasa, kalit xabarlarini yordamchi xabarlarga nisbatan ustun qo'ying.

#### **Kalit xabarlari**

- «Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning» aksiyasi asosiy maqsadlari – bu keng jamoatchilik, shifokorlar, tibbiyot mutaxassislari va siyosatchilarga revmatik va tayanch-harakat tizimi kasalliklarini (RTK) erta tashxislash va dalillarga asoslangan davolanishdan o'z vaqtida foydalanish muhimligi haqida ma'lumot berishdir.
- erta tashxislash va erta davolanishga kirishish, RTKLarning inson va jamiyatga kelgusida yetkazadigan zarar va yuklarining oldini olish kaliti hisoblanadi.
- Masalan, agar revmatoid artritni simptomlar boshlanganidan keyin 12 hafta ichidayoq farmokologik davolash boshlansa, bu vaqt o'tishi bilan bo'g'imlar yemirilishini minimum darajaga keltirishi va remissiya ehtimolini oshirishi mumkun<sup>1</sup>.
- Yevropa Ittifoqida, agarda RTKLar bilan kasallangan odamlar uchun erta aralashuvlar kengroq tatbiq qilinganda, har kuni qo'shimcha bir million xodim ishda bo'lishi mumkin bo'lар edi<sup>2</sup>.
- "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" – bu JABM tashkilotlari, ilmiy a'zo jamiyatlari hamda sog'liqni saqlash mutaxassis uyushmalar ovozlarining birlashmasi bo'lib, asosiy maqsadi erta tashxislash va davolanishdan o'z vaqtida foydalanish muhimligini ta'kidlaydigan EULAR (Revmatizmga qarshi Yevropa Ligasi) tashabbusidir.



#### **Yordamchi xabarlar**

- "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" kampaniyasining ishga tushurilishi EULARning 70 yilligiga to'g'ri kelib, bu o'tkazilgan tadqiqotlar va tibbiyot mutaxassislari, shifokorlar va bemorlar o'rtaсидаги hamkorlikning 70 yilligini nishonlaydi.
- Vaqtida ta'minlangan ma'lumot, jismoniy mashqlar va ortiqcha vaznni kamaytirish osteoartrit oqibatida kelib chiquvchi og'riq, nogironlik va hamroh kasalliklar xavfini hamda bo'g'imlarni jarrohlik yo'lli bilan almashtirish ehtiyojini kamaytiradi<sup>3,4</sup>.
- Bu kasallikka chalingan 4 kishidan 3 tasiga fibromiyalgiya tashxisi qo'yilmagan Tashxis qo'yishga esa o'rtaча 5 yil vaqt ketadi<sup>5</sup>.

<sup>1</sup> Van der Lined M.P.M., le Cessie S., Raza K. va boshqalar. Erta artritli bemorlarni baholashda kechikishning uzoq muddatli ta'siri. Artrit va revmatizm 62 (2010) 3537-3546

<sup>2</sup> Artrit bilan ishslash. Artrit tadqiqotlari Buyuk Britaniya. Mavjud: <http://www.arthritisresearchuk.org/policy-and-public-affairs/reports-and-resources/reports/work-report.aspx>

<sup>3</sup> Altman, RD, Osteoartritni erta boshqarish. American Journal of Managed Care (2010) 16(2): S41-47

<sup>4</sup> Anandacoomarasamy, A & March, L. Osteoartritni davolash uchun hozirgi dalillar. Ther Adv Musculoskel Dis. (2010) 2(1): 17-28

<sup>5</sup> Arnold, L.M., Klau, D.J. va boshq., Fibromiliyagyaning tan olinishi va diagnostikasini yaxshilash. (2011) 86(5): 457-464

- RTKlar bilan faqat Yevropaning o'zida 120 milliondan ortiq odam aziyat chekadi – bu boshqa kasallik guruhlariga qaraganda ko'proqdir<sup>6</sup>.
- RTKlar barcha yoshdagi insonlarga, shu jumladan bolalar va chaqaloqlarga ta'sir qilishi mumkin va agarda kerakli davo muolajalari o'tkazilmasa, u yurish, zinapoyalarga chiqish, ovqat pishirish, shaxsiy gigiyena va ishlash kabi kundalik faoliyatga ta'sir qilib – hayot sifatini pasaytiradi va jismoniy qobiliyatlarga ta'sir o'tkazadi<sup>7</sup>.
- RTKlar bilan hastalangan aholi orasida klinik tashvish va depressiyaning tarqalishi umumiyligi aholiga nisbatan taxminan ikki baravar ko'pdir<sup>8</sup>.
- Qo'shimcha ma'lumot uchun EULAR veb-saytiga tashrif buyuring: [www.eular.org](http://www.eular.org)

#### **Butunjahon artrit kunining kalit xabarlarli**

- Butunjahon artrit kuni global tashabbus bo'lib, EULAR tomonidan boshqariladi va kengroq bo'lgan "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" kampaniyasining bir qismini tashkil etadi.
- Butunjahon artrit kuni maqsadi bu RTKlar bilan hastalangan insonlar muammolari haqidagi xabardorlikni oshirish uchun odamlarni o'zaro birlashtirishdir va bu kun har yili 12-oktabrda nishonlanadi.
- Qo'shimcha ma'lumot uchun EULAR veb-saytiga tashrif buyuring: [www.worldarthritisday.org](http://www.worldarthritisday.org)



<sup>6</sup> Revmatik kasalliklar bo'yicha savollar va javoblar. EULAR. Mavjud: <http://www.eular.org/myUploadData/files/Q-and-A-on-RMDs.pdf>

<sup>7</sup> Revmatik kasalliklar haqida bilishningiz kerak bo'lgan 10 ta narsa. EULAR.

Mavjud: <http://www.eular.org/myUploadData/files/10%20things%20on%20RD.pdf>

<sup>8</sup> Geenen R., Newman S., Bossema E R. va boshqalar. Revmatik kasalliklar va tashvish yoki depressiya bilan og'rigan bemorlar uchun psixologik aralashuvlar. Eng yaxshi amaliyot va tadqiqot Klinik revmatologiya 26 (2012) 305–319. Mavjud: [http://www.researchgate.net/profile/Johanna\\_Joke\\_Vriezekolk/publication/230622327\\_Psychological\\_interventions\\_for\\_patients\\_with\\_rheumatic\\_diseases\\_and\\_anxiety\\_or\\_depression/060103d/060306](http://www.researchgate.net/profile/Johanna_Joke_Vriezekolk/publication/230622327_Psychological_interventions_for_patients_with_rheumatic_diseases_and_anxiety_or_depression/060103d/060306)

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birqalikda kurashish  
#BugunoqBog'laning**

#### 4. Brendlash va tasvirlar

*Kampaniyani qo'llab-quvvatlash maqsadida ishlab chiqilgan materiallar shaklini moslashtirishingiz mumkin.*

Aksiya logotipi, ta'lif varaqasi va futbolka shablondlari tadbirlaringiz, onlayn va har qanday materiallarda foydalanishingiz uchun ishlab chiqilgan. Yuqori aniqlikdagi tasvirlar va badiiy fayllar materiallaringizni moslashtirish/tarjima qilish uchun berilgan.

**Maslahat:** kalit xabarlari materiallar nusxasini ishlab chiqishni boshlash uchun ajoyib joydir.

**Ta'lif varaqasi**



O'ZINGIZDA HOLSIZLIK,  
BO'G'IMLARINGIZDA  
OG'RIQ VA QOTISHNI  
SEZYAPSIZMI?

**ASLO**  
**KECHIKTIRMANG,**  
**BUGUNOQ**  
**BOG'LANING**

[www.eular](http://www.eular)

[www.facebook.com/eular.org](https://www.facebook.com/eular.org)

[2@ular\\_org](mailto:2@ular_org)

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish**  
**#BugunoqBog'laning**

## .... SIZNI BEZOVT A QILAYOTGAN MUAMMOLARINGIZ HAQIDA SHIFOKORINGIZ BILAN GAPLASHING

Kasallikni yengishning birinchi bosqichi bu **simptomlar haqida bilishdir**. Bo'g'im va mushakkagi doimiy og'riq, o'ta charchash, qotish va depressiya kabi belgilar **Revmatik va tayanch-harakat tizimi kasalliklarining (RTKlar)** simptomlari hisoblanadi.

### REVMATIK VA TAYANCH-HARAKAT TIZIMI KASALLIKLARI – NIMA?

- **Revmatik va tayanch-harakat tizimi kasalliklari (RTKlar)** termini fibromialgiya va podagradan tortib to revmatoid artrit va qizil yugurik kabi turli xil holatlarni o'z ichiga oladi.
- RTKlar bilan Yevropaning o'zida **120 milliondan ortiq aholi** aziyat chekadi. U **barcha yoshdag'i** ayollar va erkaklarga, shu jumladan bolalar va chaqaloqlarga ta'sir qiladi<sup>1</sup>.
- Erta tashxislash kelgusidagi zararlarning oldini olish kaliti hisoblanadi, ammo RTKlar tashxisi ko'pincha kechiktiriladi yoki umuman qo'yilmaydi.
- Agarda kerakli davo muolajalari o'tkazilmasa, u kundalik faoliyatga ta'sir qilib – hayot sifatini pasaytiradi va jismoniy qobiliyatlarga ta'sir o'tkazadi.
- Har qanday bezovta qilayotgan muammolaringiz haqida shifokoringiz bilan gaplapping.

"Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning"- EULAR (Revmatizmga qarshi Yevropa Ligasi) tashabbusi bo'lib, uni EULARga a'zo bo'lgan barcha tarmoqlar, jumladan, ilmiy a'zo jamiyatlari, sog'liqni saqlash mutaxassis uyushmalari va JABM tashkilotlari qo'llab-quvvatlashi bilan birqalikda, asosiy maqsadi bu erta tashxislash va davolash va parvarishdan o'z vaqtida foydalananish muhimligini ta'kidlashdan iborat.

### #BugunoqBog'laning

Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birqalikda kurashish  
#BugunoqBog'laning

Mayka shabloni



Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish  
#BugunoqBog'lanning

Kampaniya logotipi



Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish  
#BugunoqBog'laving

## **5.0 Tadbir bo'yicha ko'rsatma**

*Ushbu bo'limda kampaniya tadbirlarini rejalashtirish bo'yicha ko'rsatmalar, jumladan, siz o'tkazmoqchi bo'lgan tadbirlar umumiy ko'rinishiga misollar amaliyotdan kelib chiqqan holda keltirilgan.*

«Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning» tadbirini rejalashtirish, kampaniya xabarini keng jamoatchilik va RTK hamjamiyatlari orasida tarqatishga yordam beradi. Quyida siz, Ispaniyaning JABM guruhni, LIRE va Portugaliya revmatizmga qarshi ligasi o'z mamlakatlarida xabardorlikni oshirish maqsadida rejalashtirayotgan tadbirlarining ikkita misolini ko'rishningiz mumkun. Siz ushbu misollardan ilhomlanib o'z tadbiringizni rejalashtirish va o'tkazishda foydalanishingiz mumkin.

Tadbirni tashkil qilishda sizga boshqa mahalliy sog'liqni saqlash sohasidagi mutaxassislar, tibbiyot hamjamiyatlar va bemorlar tashkiloti bilan hamkorlik qilishingizni qat'iy tavsiya qilamiz.

### **5.1 Tadbir holatini o'rganish**

#### Madrid tomosha

Madridda **13-iyun** kuni Madrid-Atocha temiryo'l vokzalida tomosha bo'lib o'tadi. U xuddi poyezdlar bog'langanlik g'oyasi kabi o'z vaqtida bog'lanishning ahamiyatiligi va vaqtida bog'lanmaslikning oqibatlarini ko'rsatishga qaratilgan: siz o'zingizning poyezd aloqangizni o'rnatishingiz muhim hamda sog'lig'ingiz bilan bog'liq muammolaringiz bo'lsa, shifokor yoki sog'liqni saqlash mutaxassisi bilan bog'lanishingiz yanada muhimroq.



Tomosha Ispaniyaning bemorlar tashkiloti LIRE tomonidan, Sociedad Española de Reumatología va Ispaniyaning revmatologiya bo'yicha Open Reuma sog'liqni saqlash mutaxassislari uyushmasi bilan hamkorlikda o'tkaziladi. Bu keng jamoatchilik vakillari bilan muloqot qilish uchun ajoyib imkoniyat bo'ladi.

Tomoshada o'quv materiallari tarqatiladi va aholi uchun revmatologlar va sog'liqni saqlash mutaxassislari ishtirokida bepul skrininglar o'tkaziladi.

#### Lissabon siyosiy davra suhbati

Lissabondagi JABM anjumanini bilan bir vaqtda, Portugaliya Revmatizmga Qarshi Ligasi fevral oyida erta tashxislash mavzusidagi siyosiy anjumanini o'tkaziladi. Tadbirning maqsadlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- Siyosatchilar va qaror qabul qiluvchilar orasida erta tashxislash va tibbiy yordam olish imkoniyatiga ega bo'lish muhimligi haqidagi xabardorlikni oshirish.
- Ertalashuv milliy strategiyasining iqtisodiy samaradorligi to'g'risidagi dalillarni taqdim etish.
- Fanlararo tarmoqning ahmiyatini ta'kidlash va mustahkamlash.

Davra suhbatingin kun tartibi shablonini bu yerdan topishingiz mumkin.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birlashtirish**  
**#BugunoqBog'lanin**

Erta yondashuvni turli xil tomondan muhokama qilish uchun bir qator ma'ruzachilar qatnashadilar, tinglovchilarda esa unda ishtirot etish va savollar berish imkoniyati mavjud bo'ladi. Tadbirda siyosatchilar, jurnalistlar, shifokorlar, RTKlar bilan og'rigan bemorlar va tibbiyot mutaxassislari qatnashadilar.

## **2. O'z tadbiringizni o'tkazish haqida**

Tadbiringizni tashkil qilish bo'yicha quyidagi ba'zi ko'rsatmalarni topishingiz mumkin.

### **1. Mahalliy sog'liqni saqlash mutaxassisi/shifokorlar bilan boshlang'ich uchrashuvni o'tkazing.**

Bu sizga g'oyalarni o'ylab topish va tadbiringizni tashkil qilish bo'yicha, birgalikda ishlashga yordam beradi.



### **2. Tashkil etiladigan tadbir turini belgilang.**

Siz, oldindan e'lon qilingan yoki kutilmagan tadbirlarni Madrid tomoshasiga o'xshatib o'tkazishingiz mumkun. Shuningdek, siz RTKlar atrofidagi siyosatni muhokama qilish uchun RTK hamjamiyatinning asosiy vakillari ishtirokida davra suhbatি tadbirini o'tkazishingiz mumkin.

### **3. Tadbiringiz vaqtini belgilang.**

Global kampaniyaning ishga tushurilishi EULAR kongressida bo'lib o'tadi, Ispaniyada ham bir vaqtning o'zida o'tkaziladi. Mahalliy tadbiringizni muhim ahamiyatga ega bo'lgan Butunjahon artrit kuni yoki milliy xabardorlik kunida o'tkazishingizni tavsiya qilamiz.

Tadbir vaqtı ham muhim ahamiyatga ega – siz ommaviy tadbirni odamlar ko'p yig'iladigan vaqtida o'tkazishingiz mumkun. Masalan, agar siz tadbiringizni poyezd stansiyasida o'tkazayotgan bo'lsangiz, yo'lovchilar soni ko'p bo'lgan vaqtga moslashtirib o'tkazing. Hamma asosiy mehmonlar va ma'ruba chilarining davra suhbatи yoki anjumanda ishtiroti ta'minlashiga e'tibor qarating.

### **4. Tadbir o'tkaziladigan joyni belgilang.**

#### Ommaviy tadbir

Agar siz ommaviy tadbirni rejalashtirmoqchi bo'lsangiz, uni quyidagi joylarda o'tkazilshi maqsadga muvofiq:

- **Jamoat joyi** – shahar maydoni, jamoat transport bekti, savdo markazi, sport maydonchasi yoki park kabi joylar idealdir.
- Katta jamoatchilik to'planadigan joylar. **Faoliyatizingiza qanchalik ko'p odamlar guvoh bo'lsa, RTKlar haqidagi xabardorlikni shunchalik ko'p oshirishingiz mumkun.**
- Yo'llar, to'siqlar yoki ishtirokchilar tushib ketishi mumkin bo'lgan xavfli joylardan uzoqda bo'lishi lozim.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish**  
**#BugunoqBog'laning**

- Barcha yoshdagilar uchun to'g'ri keladigan – agar bolalar ishtirok etayotgan bo'lsa, ularga mas'ul bo'lgan kattalar/ota-onalar/o'qituvchilarning ham ishtiroki ta'minlanishiga va har qanday suratga olish/fotosuratlar ularning ruxsati bilan olinishiga ishonch hosil qiling.

#### Sog'liqni saqlash mutaxassisi/shifokor/siyosiy tadbir

Agarda siz davra suhbat yoki anjuman o'tkazishni rejalashtirmoqchi bo'lsangiz, tadbiringiz joyi bo'lishi lozim:

- Uchrashuvlar zali, anjumanlar zali yoki shunga o'xshash.
- Ma'ruzachilar uchun ajratiladigan joylarni va tinglovchilaringiz uchun esa **anjuman stoli** atrofi (davra suhbat) yoki **auditoriya uslubida** joylashtirishni belgilab oling.

#### **JOYLASHTIRISH BO'YICHA MASLAHATLAR**

Joylashtirishni rejalashtirishda quyidagilarga e'tibor bering:

- Hudud xavfsizligi bilan bog'liq bo'lgan muammolar bor yoki yo'qmi?
- Favqulodda chiqish yo'llarin to'sib qo'ymasizmi?
- Hududda har qanday audiovizual (AV) uskunasini qo'llash mumkunmi?
- Kerak bo'lganida, musiqa asboblari uchun elektr rozetkalari mavjudmi?
- Tadbirni o'tkazish uchun qaysi organdan ruxsat olishingiz lozim (agar mavjud bo'lsa)?
- Mahalliy politsiya/biznesni tadbir haqida xabardor qilish zarurmi?
- Sizda tadbirni qoplash uchun tegishli sug'urtangiz bormi?
- Tadbir o'tkaziladigan hudud yetarlicha yoritilganmi?
- Tadbiringiz uchun yetarlicha joy mavjudmi?
- Joy uchun ruxsatnoma olishda mas'ul tashkilot bilan oldindan bog'lanishni unutmang.

#### **5. Odamlarni tadbiringizda ishtirok etishga taklif qiling.**

##### Ommaviy tadbir

Tadbirni video/suratga olish va boshqa ishlarni amalga oshirish uchun volontyor sifatida yordam beradigan odamlarni toping. Siz o'zingizga yaqin bemorlar jamoasi va oldingi tadbirda qatnashgan odamlar bilan birgalikda boshlashning mumkin. Biroq, siz oilangiz va do'stlaringiz, mahalliy jamoat guruhlari, mahalliy maktablar va universitetlardan ham yordam berishlarini so'rashingiz mumkin. Albatta, konferensiya va yig'ilishlarda o'z rejalaringiz haqida gapirib, qiziquvchan ishtirokchilarni qatnashishga taklif qiling.

Facebookda tadbir sahifasini yaratib, unga odamlarni taklif qiling. Shuningdek, siz odamlarni elektron pochta, xat va matnli xabar orqali taklif qilishingiz mumkin. Taklifnomaga qisqa, aniq va ixcham bo'lishi va quyidagi tafsilotlardan iborat bo'lishi lozim:

- Tadbirning joyi, sanasi va vaqtini.
- Kiyim bo'yicha tafsilotlar (agar kerak bo'lsa).

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish**  
**#BugunoqBog'lanning**

- Ishtirokchilarga tadbir va kampaniya haqida eslatma va yangiliklarni jo'natish maqsadida, ulardan taklifnomaga javob tavsiotlari va a'lloqa ma'lumotlarini so'rang
- Siz bilan bog'lanishlari uchun odamlarga aloqa ma'lumotlaringizni bering.

#### Sog'lijni saqlash mutaxassisasi/shifokor/siyosiy tadbir

RTK hamjamiyatining asosiy a'zolarining ishtiroki haqida o'ylab ko'ring. Tadbiringizda qatnashuvchi ma'ruzachilarning soni va shaxsi haqida o'ylab, ularni oldindan ogohlantirib qo'ying.

Siz odamlarni elektron pochta orqali taklif qilishingiz mumkin. Taklifnomalar qisqa, aniq va ixcham bo'lishi va quyidagi tafsilotlardan iborat bo'lishi lozim:

- Tadbirning joyi, sanasi va vaqtini.
- Uchrashuv kun tartibi.
- Kiyinish dress kodi bo'yicha tafsilotlar (agar kerak bo'lsa).
- Ishtirokchilarga tadbir va kampaniya haqida eslatma va yangiliklarni jo'natish maqsadida, ulardan taklifnomaga javob tafsilotlari va aloqa ma'lumotlarini so'rang.
- Siz bilan bog'lanishlari uchun odamlarga aloqa ma'lumotlaringizni bering.
- 

#### **6. Matbuotga xabar bering.**

Tadbir oldidan:

- Agarda siz ommaviy tadbir o'tkazayotgan bo'lsangiz, iloji boricha ko'proq mahalliy axborot vositalari/jurnalistlari (jumladan, bosma, onlayn va eshittirish/TV) bilan bog'lanib, ularni tadbiringizga taklif qiling.
- Siz bir nechta siyosiy/sog'lijni saqlash jurnalistlarini siyosiy uchrashuvga taklif qilishingiz mumkin.
- Ommaviy axborot vositalarini tadbirdagi ishtiroki haqida elektron pochta va telefon qo'ng'irog'i orqali so'rang.

Shu kuni:

- "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" aksiyasi haqidagi press-relizlar, ma'lumotlar va ba'zi fotosuratlarni ommaviy axborot vositalariga yuboring (jumladan, tadbirda qatnashgan va qatnasha olmaydigan ommaviy axborot vositalari)

**Agar sizning fotosuratlarining/videolarining bolalar bo'lsa, ularni nashr etish va tarqatishdan oldin ota-onasining ruxsatini olishni unutmang.**

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish**  
**#BugunoqBog'laning**

**THE BLOG**  
**Arthritis Is for Old People, Right?**

28/04/2018 14:43

150

Simon Barnes Consumer health advocate and researcher in the UK

You'll be surprised how many times I've heard, "but you're too young to have arthritis". My granny has had it! Bugunoq, arthritis in children is more common than you may think. In the UK, 1 in 1000 children under the age of 16 will be living with the condition every single day. Having had arthritis from the age of three, it's hard to imagine what my life would be like without it.

Growing up with "an older person's disease" made me grow up quickly. Having to think about treatments and hospital appointments made me much more organised than your average kid. I look back on those happy memories, despite living with a painful disease. Although some drugs I was prescribed were great at improving my symptoms, they had significant side effects, one even gave me a "moom face" - not the most flattering look for a teenage boy!

Due to the limitations of living with arthritis as a young person, I was unable to participate in contact sports, as my joints would quite easily dislocate at the drop of a hat. As a result, I've never really been sporty. It's a bit of a long-winded pose now, I suppose. Sorry, and I'm sure you're thinking "what?"

Although I laugh it off, I am physically unable to do lots of sports. I'd be fit for nothing if I did. It's still important to keep active however, and so I try to go swimming as often as I can, as this doesn't put any pressure on my joints.

World Arthritis Day

Thanks to everyone who organised a World Arthritis Day event! Don't forget to share your event photos #WADStory



RETWEETS 7 LIKES 16

3:47 PM · 21 Oct 2016

## 6.0 Ommaviy axborot vositalari bilan ishslash tartibi

*Ushbu bo'limga ommaviy axborot vositalari bilan ishslash tartibi bo'yicha ko'rsatmalar, jum-ladan, press-relizlar va amaliy tadqiqotlarni ishlab chiqish bo'yicha maslahatlar berilgan.*

RTKLarni erta tashxislash va dalillarga asoslangan davolash usullaridan o'z vaqtida foydalanish muhimligi haqidagi xabarning ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta'minlash muhimdir. Siz o'tkazayotgan har qanday tadbir maqsadlari va xabardorligini yaratishda ommaviy axborot vositalari hayotiy o'rinni egalishi mumkun. Biz sizga mahalliy "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'lanning" tadbirlari haqida xabardorlikni oshirishda milliy va ijtimoiy media faoliyatidan birgalikda (7.0-bo'limga qarang) foydalanshingizni tavsiya qilamiz.

### 6.1 Press-relizlarni tayyorlash

Ommaviy axborot vositalari bilan muloqot qilish maqsadida siz "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'lanning" kampaniyangiz haqida qisqacha press-relizlar tayyorlastingiz mumkin. Bu oldindan xabar berish, tadbirga e'tiborni qaratishning yana bir foydali usulidir.

Jurnalistlarning qaysi biri siz rejalshtirgan faoliyatizingiz uchun ko'proq mos kelishi haqida o'ylab ko'ring, masalan, ommaviy tomoshaga ommaviy axborot vositalarini jalb qilish ajoyib imkoniyat bo'lsa, siyosiy davra suhbati siyosiy va sog'iqliqi saqlash axborot vositalarida ko'proq qiziqish uyg'otishi mumkin.

Quyida berilgan ba'zi ko'rsatmalar press-relizingizni tuzayotganingizda kerakli ma'lumotlarni o'z ichiga olishiga yordam beradi:

#### **ESDA TUTING:**

1 va 2-bandlar o'ta muhimdir, chunki ko'p hollarda jurnalistlar press-relizning faqatgina sarlavha va birinchi paragrafini o'qishi mumkin.

1. Sarlavha tezkor, qiziqarli va mavzuga mos bo'lishi lozim.
2. Birinchi paragrafda hikoyangizning mohiyati va faoliyatizingiz/hodisalarining asosiy tafsilotlari, masalan, "kim, nima, nima uchun, qanday, qayerda va qachon" kabilarni o'z ichiga olishi lozim.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish**  
**#BugunoqBog'lanning**

3. Agar press-relizning maqsadi jamoatchilik ishtirokini rag'batlantirish bo'lsa, unda ular nima maqsadda ishtirok etishlari kerakligini yana bir bor takrorlang.
4. Keyingi paragrafda RTKlarni erta tashxislash haqida batafsil ma'lumot bering. Kampaniyaning kalit xabarlaridan fakt va raqamlarni topish mumkin. Iloji bo'lsa, siz o'z mamlakatingizdag'i fakt va raqamlarni ham kiritishingiz lozim.
5. Hikoyangizdag'i faktlarni jonlantrish maqsadida asosiy ma'ruzachilarning iboralarini qo'shing.
6. Mahalliy faoliyatizingiz bu Yevropa miyqosidagi "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" tashabbusining bir qismi ekanligi haqida ta'kidlab o'ting. "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" kampaniyasi haqida ma'lumot bering.
7. Ertalash va davolanish imkoniyati muhimligi haqida ta'kidlab, «harakatga chaqiruvchi» kabi davat qilish bilan yakunlang.
8. Press-relizingizning asosiy qismidan so'ng, siz «Muharrirlarga eslatmalar» deb nomlangan bo'limni qo'shishingiz mumkin. Bu quyidagi paragraflarni o'z ichiga oladi:
  - «Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning haqida» – Misol matnini «EULAR 2017 kampaniyasi: Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning» bo'limidan topish mumkin.
  - «[tashkilotning nomi] haqida» – tashkilotningiz, uning veb-sayt manzili va aloqa ma'lumotlari haqida ma'lumotlar qoldiring
  - «EULAR haqida» – kabi so'zlarni «EULAR haqida» bo'limidan topish mumkin

## **6.2 Erta tashxislash bo'yicha amaliy tadqiqotlar bilan ta'minlash**



Siz jurnalistlarga RTK bilan xastalangan va erta tashxishlash haqida o'z hikoyasiga ega bo'lgan insonlardan intervyu olish kabi imkoniyatini taklif qilgan holda, kampaniyangizni hayotga tatbiq etishga yordam berishingiz mumkin. Shaxsiy hikoyalarni matbuotda yoritilish ehtimoli oddiy faktlarni so'zlashga nisbatan ko'proq. Agarda jurnalist intervyu o'tkazmoqchi bo'lsa, suhbатdoshlariningizdan shaxsiy tajribalariga asoslanib, "harakatga chaqiruv"chi ijobjiy javoblar berishni so'rab, ularga oldindan bu haqda ma'lumot berishingiz lozim. Suhbatdoshingiz o'zini qulay

his etayotganligiga ishonch hosil qilish maqsadida, suhbatda ishtirok etishdan xursand yoki yo'qligini so'rang. Shuningdek, bu quyidagi so'rovnomaning o'tkazilishida ularga yordam beradi:

- RTK alomatlarini qachon sezalashning qachon?
- Sizga qachon RTK tashxisi qo'yilgan?
- Tashxis qo'yish davomiyligi, RTK bilan yashagan tajribangizga qanday ta'sir ko'rsatdi?
- RTKga ega bo'lish, hayot sifatingizga qanday ta'sir ko'rsatdi?
- "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" kabi tashabbuslar RTK hamjamiyatiga qanday yordam beradi?
- Nima deb o'ylaysiz, erta tashxislash RTKlar bilan og'igan odamlarga foyda keltiradimi?
- RTK diagnostikasi, xabardorligi va boshqaruvi nuqtayi nazaridan jamoatchilik qanday choralar ko'rishini xohlardingiz?
- Siyosatchilarning RTKlarni erta tashxislash va ularni boshqarish bo'yicha qanday choralar ko'rishini xohlardingiz?

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish**  
**#BugunoqBog'laning**

## 7.0 Ijtimoiy tarmoqlar

*Ushbu bo'limda kampaniya targ'ibotida ijtimoiy tarmoqlardan qanday foydalanish jumladan, ijtimoiy media kontenti kalendarlari va jonli videolarni ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.*



Ijtimoiy media kanallaringizdan foydalanishni qat'iy tavsiya qilamiz. Ayniqsa, Facebook kuchli platforma bo'lib, kampaniya haqidagi xabarni tarqatishga va RTK hamjamiyatini jalg qilishga yordam beradi. "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'lanning" bilan bog'iqliq barcha ijtimoiy tarmoq kontentlari **#ConnectToday** hashtagidan foydalanishi lozim.

Kontent taqvimini yaratish sizga ijtimoiy tarmoqdagi faoliyatizingizni oldindan rejalashtirishga yordam beradi va mutazam ravishda postlar almashinuvini ta'minlaydi. Ijtimoiy tarmoq kontent taqvimini sozlash oson:

- Har oydag'i kunlarni ko'rsatuvchi Excel elektron jadvalini yoki Word hujjatini yarating.
- Har kungi yoki haftada uch marta ijtimoiy tarmoqlar uchun post(lar)ni tayyorlang va ularni rejalashtirilgan yuborish vaqtini belgilang.
- Haftaning turli kunlarida har xil mavzuning muhokamasi kabi postlaringizni turli xil ko'rinishda tayyorlashingiz mumkun. Masalan: dushanba = RTKlar va erta tashixislash haqidagi asosiy statistika va faktlari, seshanba = Seshanba Eng Yaxshi Maslahatlari, chorshanba = motivatsion postlar.
- Kampaniya faoliyatining eng yuqori cho'qqisida ijtimoiy tarmoqdagi harakatlaringizni oshirganingiziga ishonch hosil qiling. "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'lanning" ni ishga tushirilishi va 12-oktabrdagi Butunjahon artrit kuni to'g'ri keladigan haftasiga ko'proq postlarni rejalashtiring.
- Postlaringizga qanday rasm va videolarni qo'shamoqchi ekanligingizni o'ylab ko'ring. Rasmlar va videolar e'tiborni tortish uchun xizmat qiladi.
- Siz o'z postlaringizga boshqa tashkilotlar bilan ma'lumot almashinish maqsadida veb-sayt havolalarini qo'shib ketishingiz mumkin – bu kelgusida RTKlar va erta tashxislashning ahamiyati haqida ijtimoiy tarmoqdagi guruhlarni xabardor qilishga yordam beradi.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish**  
**#BugunoqBog'lanning**

- Kampaniyani ishga tushirishdan avval ijtimoiy tarmoqlardagi o'zgartirsa bo'ladigan tizer postlarining ba'zi misollari:
  - RTKLarni erta tashxislash kelgusidagi zarar va yuklarning oldini olish uchun muhimdir! #BugunoqBog'laning
  - Sog'liqni saqlash mutaxassisni yoki shifokoringiz qabuliga borishdan avval qancha vaqt davomida RTK alomatlarini o'zingizda sezdingiz?  
Quyida izoh qoldiring...
- Kampaniya ishga tushirilganidan so'ng, siz to'g'ridan to'g'ri kampaniya haqida xabarli post qoldirishingiz mumkin, masalan:
  - Biz SIZni RTKLarni erta tashxislash ahamiyatligi haqida xabardorlikni oshirishga yordam berishga chaqiramiz. Yordamingizni ko'rsatish maqsadida bu postni tarqating! #BugunoqBog'laning
  - Erta tashxislash RTKLarning kelgusidagi ta'sirining oldini olish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aslo kechiktirmay, iloji boricha tezroq shifokoringizga murojaat qiling. #BugunoqBog'laning

Siz hatto tadabiringizdan jonli videoni joylashtirishingiz mumkun, masalan, Facebookda «Facebook Live» yoki Twitterda jonli video.

- Jonli videolar sizning ijtimoiy tarmoq kanalingiz (Facebook yoki Twitter) orqali uza-tiladi va sizning sahifangizdagi hamma kuzatuvchilaringizga ko'rsatiladi.
- Siz istalgan joyda, istalgan vaqtda "jonli efiriga o'tishingiz" mumkin. Biz reja tuzib, kimni/nimani ko'rsatishingiz haqida o'ylab ko'rishingizni tavsiya qilamiz. Ishtirok-chilarni jalb qilish uchun ruxsatnomalar olish va briefing hujjatini yig'ish lozim. Shuningdek, odamlar kuzatib borishlari uchun qisqacha sstenariy yoki suhbat mavzularini yaratishingiz mumkin
- Qo'shimcha ma'lumot uchun Facebook jonli efiriga tashrif buyuring: <https://live.fb.com/golive/>
- Twitterdagи jonli efir haqida ko'proq ma'lumot uchun:  
<https://support.twitter.com/articles/20175092>

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish**  
**#BugunoqBog'laning**

## **8.0 Butunjahon Artrit kuni**


Ushbu bo'limda 2017-yildagi Butunjahon artrit kuni faoliyatiga oid ma'lumotlar berilgan bo'lib, u yanada kengroq bo'lgan «Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning» kampaniyasiga mos ravishda yoritilgan.

Butunjahon artrit kuni (BAK) – bu revmotoid artrit va osteoartrit kabi yaxshi tanilgan kasalliklardan tortib to kamchilikka tanilgan fibromiyalgiya kabi RTKLarning barcha shakllari bilan xastalangan insonlar muammolari haqida xabardorlikni oshirishda odamlarni o'zaro birlashtiruvchi global tashabbusdir. Har yili 12-oktabr BAK kuni deb tan olingen. BAK yanada kengroq bo'lgan «Also kechiktirmang, bugunoq bog'laning» kampaniyasining bir qismi bo'lib hisoblanadi.

BAK maqsadlari:

- Tibbiy hamjamiyat, RTKLar bilan xastalangan insonlar va keng jamoatchilik orasida RTKLar haqidagi xabardorlikni oshirish
- Qaror qabul qiluvchilarini RTKLarning yuki va ularni yengillashtirish bo'yicha ko'ri-ladigan chora-tadbirlar haqida xabardorligini oshirish orqali ommaviy siyosatga ta'sir o'tkazish.
- RTKL barcha odamlar va ularning g'amxo'rlarini ular uchun mo'ljallangan keng ko'lamli qo'llab-quvvatlash tizimi mavjudligi haqida xabardor qilish.

**Butunjahon artrit kuni sa'y-harakatlarining markazida – bizning kampaniya videoroligini tayyorlash va tarqatish o'rın tutadi.**



Video erta tashxislash va to'g'ri davolanishning ahamiyatiliginini yana bir bor ta'kidlab, odamlarni sog'iqliqi saqlash mutaxassisini bilan ertaroq bo'g'lanishga undaydi. Ushbu video BAK veb-saytida va ijtimoiy media kanallarida 12-oktabrdan boshlab ko'rsatila boshlaydi va mahalliy faoliyatingizda foydalanishingiz uchun sizga taqdim qilinadi (12-oktabrgacha embargo ostida).

Xabardorlikni oshiruvchi kuchli platformani yaratish maqsadida «Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning» tadbirlarini Butunjahon artrit kuniда o'tkazishni ko'rib chiqing. 5.0-bo'limda ommaviy axborot vositalari bilan ishslash hamda 7.0-bo'limda kampaniyangizni qo'llab-quvvatlashda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish tartibi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni topishingiz mumkun.

Biz sizni rasmiy BAK veb-sayti, Facebook va Twitter kanallari orqali qo'llab-quvvatlay olishimiz uchun har qanday kampaniya faoliyatingiz haqida bizga xabar bering.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish  
#BugunoqBog'laning**



## **9.0. Foydali aloqa ma'lumotlari**

Quyida foydali aloqalar ro'yxati keltirilgan. "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" aksiyasi yoki uni qanday qo'llab-quvvatlashingiz haqida savollaringiz bo'lsa, bizga murojat qiling.

### **Maria Batziou, EULAR Sekretariati**

#### **Loyiha koordinatori**

**Tel:** +30 694 623 2776

**Email:** Maria.Batziou@eular.org

### **Birte Gluesing, EULAR Sekretariati**

#### **Loyiha menejeri**

**Tel:** +49 228 962 12 83

**Email:** B.rite.Gluesing@eular.org

### **Lydia Tchambaz, EULAR Sekretariati**

#### **Ijrochi direktor o'rinnbosari**

**Tel:** +41 44 716 30 33

**Email:** Lydia.Tchambaz@eular.org

### **Ursula Aring, EULAR Sekretariati**

#### **Aloqa menejeri**

**Tel:** +41 44 716 30 38

**Email:** Ursula.Aring@eular.org

**Barchaga yordamingiz uchun tashakkur bildiramiz!**

Biz siz bilan kelgusida erta tashxislash haqidagi xabardorlikni oshirish va RTKlar bilan kasallanganlarning hayot sifatini yaxshilashga yordam berish uchun hamkorlik qilishni kutib qolamiz.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish**  
**#BugunoqBog'laning**

## 10. Illova

### Lissabondagi siyosiy davra suhbati kun tartibi namunasi

- **09:30 – 10:00:** Registratsiya/Salomlashish qafvasi.
- **10:00 – 10:05:** Xush kelibsiz / anjuman kirish so'zi – Moderator.
- **10:05 – 10:10:** Salomlashish nutqi.
- **10:10 – 10:25:** Erta murojaat bo'yicha Yevropa yondashuvi.
- **10:25 – 10:40:** Erta tashxislashda sog'liqni saqlash mutaxassislarining roli.
- **10:40 – 10:55:** Portugaliyada revmatolog ko'rígiga erta murojaat.
- **10:55 – 11:10:** RTKlarning sog'liqni saqlash iqtisodiyoti.
- **11:10 – 11:25:** Portugaliyada RTK yukini yengish uchun hukumat yondashuvi.
- **11:25 – 11:40:** Bajarilishi kerak bo'ladigan ishlar.
- Har bir taqdimotdagi asosiy xabarlar haqida **2 daqiqadan** fikr yuritish.
- **11:40 – 12:20:** Davra suhbati.
- **12:20 – 12:30:** Yakunlovchi so'zlar, erishilgan maqsadlar sarhisobi.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish**  
**#BugunoqBog'lanning**

## "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" kampaniya vositalar to'plami

### Ilmiy hamjamiyat

#### Vositalar to'plami sharhi

EULAR tashabbusi bilan o'tkazilayotgan "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" aksiyasi, revmatik va tayanch-harakat a'zolari kasalliklarini (RTK) erta tashxislash va dalillarga asoslangan davolash usullaridan o'z vaqtida foydalanish, inson va jamiyatga kelgusidagi zarar va yuklarning oldini olish mumkinligini ta'kidlashga qaratilgan.

Kampaniya muvaffaqiyatlari bo'lishida bizga **sizning** yordamingiz zarur. «Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning» – RTKlar bilan xastalangan insonlar hayotini yaxshi tomonga o'zgartiradigan kuchli platforma bo'lib, RTKlarda ishlaydigan barchani – sog'liqni saqlash mutaxassis uyushmalari, tibbiyot birlashmalari va bemor guruhrilarini – yagona maqsad sari ishlash uchun birlashtiradi.

Ushbu vositalar to'plami, **«Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning»** kampaniyasining umumiy ko'rinishini taqdim etib, kampaniya va bemorlarni qo'llab-quvvatlashga yordam beradigan asosiy yo'rqnoma va materiallarni o'z ichiga oladi.

Ushbu qiziqarli kampaniya ustida siz bilan birgalikda ishlashni kutib qolamiz. Sizning qo'llab-quvvatlashingiz va hissangiz bilan biz ertaroq tashxishlash va davolanish imkoniyati uchun birgalikda ishlay olamiz!

#### Vositalar to'plami tarkibi

1. EULAR haqida.
2. "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" umumiy ko'rinishi.
3. "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" kalit xabarlarli.
4. Brendlash va tasvirlar.
5. "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" Erta tashxislash manba qollanmasi.
6. RTKlarning devoriy diagrammasi.
7. Tadbir bo'yicha ko'rsatma.
8. Butunjahon artrit kuni.
9. Foydalı aloqa ma'lumotlari.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish  
#BugunoqBog'laning**

## **1.0 EULAR haqida**

Revmatizmga qarshi Yevropa ligasi (EULAR) – bu butun Yevropa bo'ylab artrit/revmatizm bilan xastalangan insonlar, sog'liqni saqlash mutaxassislari va butun Yevropa bo'ylab revmatologiya ilmiy jamiyatlarini o'zida jamlovchi notijorat tashkilotdir.

EULARning maqsadlari inson va jamiyat uchun revmatik kasalliklar yukini kamaytirish va RTKLarni davolash, oldini olish va reabilitatsiya qilishni yaxshilashga yo'naltirilgan. Ut tadqiqot yutuqlari va RTKlar bilan xastalangan insonlarning kundalik parvarishining yaxshilanishini targ'ib qilish va Yevropa boshqaruv organlari tomonidan RTKlar bilan xastalangan insonlarning ehtiyojlarini tan olinishi uchun kurashadi.

EULAR a'zolari tarkibiga ilmiy jamiyatlar, sog'liqni saqlash mutaxassislari, bemorlar tashkilotlari, korporativ a'zolar va Yevropa bo'ylab RTKlar bilan xastalangan insonlar kiradi.

Qo'shimcha ma'lumot uchun quyidagi sahifaga kiring: [www.eular.org](http://www.eular.org)

## 2.0 "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning"

«Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning» kampaniyasining umumiy ko'rinishi quyidagilardan iborat:

- Kampaniya maqsadlari.
- Kampaniyaning mahalliy va global darajada ishga tushurilishi.
- Faoliyat xronologiyasi.

## 2.1 "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" – nima?

«Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning» – bu butun Yevropa va mahalliy miqyosda amalga oshirilgan kampaniya bo'lib, u odamlarni, jumladan, revmatologlar, tibbiyot mutaxassislari, jamoatchilik va siyosatchilarni RTKLarni erta tashxislash va davolanishdan o'z vaqtida foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishga chaqiradi. Umumiy maqsad – RTKLarni asosiy kasalliklar va pandemiya darajasidagi aholi salomatligi muammosi ekanligini hamda erta tashxislash va o'z vaqtida davolanishga kirishish, inson va jamiyat uchun keyingi zarar va yuqlarning oldini olishi mumkinligini ta'kidlaydi.

RTKLarni erta tashxislash va dalillarga asoslangan davolash usullaridan o'z vaqtida foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishga chaqiradi.

## 2.2 Kampaniya maqsadlari

"Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" kampaniyasining maqsadlari quyidagilardan iborat:

- RTKLarni erta tashxislash va davolanishdan o'z vaqtida foydalanish, inson va jamiyatga kelgusida yetkaziladigan zarar va og'irliliklarning oldini olish muhimligini ta'kidlash.
- Kelgusidagi zararlarning oldini olish maqsadida kasalliklarni erta va tez aniqlash va davolashda ilmiy hamjamiyatlarga yordam berish (revmatologiya makkabiga muvofiq holda).
- RTKLarni erta tashxislash bo'yicha EULAR tavsiyalaridan foydalanish.
- Erta tashxislashni kechiktiradigan to'siqlarni yo'q qilish. Jamiyat tomonidan bo'g'imlar parvarishiga yetarlicha e'tibor yo'qligi sababli, odamlar ko'pincha kasallik ahamatlari paydo bo'lishi bilanoq sog'lioni saqlash mutaxassisiga murojaat qilmaydilar.
- Bemorlar o'zlarinig shaxsiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, RTKLarni optimal darajada tashxislash va davolashga ega bo'lishlarida, ularni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish**  
**#BugunoqBog'laning**

## 2.3 Kampaniyaning ishga tushirilishi

### Global ishga tushirilishi

“Aslo kechiktirmang, bugunoq bog’laning”ning global ishga tushurilishi **14-iyun kuni EULARning Madriddagi Kongressida** bo’lib o’tadi. EULAR prezidenti, professor Gerd R. Burmester EULAR Kongressining ochilish marosimida kongress delegatlarini kampaniya bilan tanishtiradi.

Bu kelgusida global tadbirlar, jumladan EULARning veb-saytiga kampaniya haqidagi ma’lumotlarni yangilab turish va press-relizlar orqali qo’llab-quvvatlanadi.

### Miliy ishga tushurilishi

Global ishga tushirish bir qator milliy tadbirlar bilan qo’llab-quvvatlanadi. Milliy faoliyatga misollar quyidagilardan iborat:

#### Lissabon siyosiy davra suhbati

Lissabondagi JABM (Jismoniy Aktivlikning Baholash Mezonlari) anjumanini bilan bir vaqtida, Portugaliya Revmatizmga Qarshi Ligasi fevral oyida erta tashxislash mavzusidagi siyosiy anjumanini o’tkazdi. Tadbirning maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- Siyosatchilar va qaror qabul qiluvchilar orasida erta tashxislash va tibbiy yordam olish imkoniyatiga ega bo’lish muhimligi haqida xabardorlikni oshirish.
- Erta yondashuv milliy strategiyasining iqtisodiy samaradorligi to’g’risidagi dalillarni taqdim etish.
- Fanlararo tarmoqning ahamiyatini ta’kidlash va mustahkamlash.

Xabarni tarqatish va ushbu muhim mavzuni muhokama qilishga yordam berish maqsadida, tadbirda siyosatchilar, jurnalistlar va tibbiyot mutaxassislari qatnashdilar. erta yondashuvni turli xil tomondan muhokama qilishda bir qator ma’ruzachilar qatnashdilar, tингlovchilar esa ishtirok etish va savollar berish imkoniyatiga ega bo’ldilar.

#### Madrid tomoshasi

Madridda **13-iyun** kuni Madrid-Atocha temiryo’l vokzalida pilot tomoshasi bo’lib o’tadi. U xuddi poyezdlar bog’langanlik g’oyasi kabi o’z vaqtida bog’lanishning ahamiyatliligi va vaqtida bog’lanmaslikning oqibatlarini ko’rsatishga qaratilgan. Albatta, siz o’zingizning poyezd aloqangizni o’rnatishingiz muhim hamda sog’lig’ingiz bilan bog’liq muammolaringiz bo’lsa, shifokor yoki sog’liqni saqlash mutaxassisini bilan bog’lanishingiz yanada muhimroq.

Tomosha Ispaniyaning bemorlar tashkiloti LIRE tomonidan, ilmiy tashkilotlar, Sociedad Espanola de Reumatologia va Open Reuma bilan hamkorlikda o’tkaziladi. erta tashxislash, o’z vaqtida dalillarga asoslangan davolash va RTKLarning jamiyatga bo’lgan ta’siri haqidagi xabardorlikni oshirish maqsadida, keng jamoatchilik vakillari bilan muloqotda bo’lish uchun ajoyib imkoniyat bo’ladi. O’quv materiallari tarqatiladi.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish**  
**#BugunoqBog’laning**

## Ko'ptarmoqli vebinlar

EULARning uchta ustunlari bo'lgan – sog'liqni saqlash sohasidagi mutaxassislar, ilmiy va bemorlar hamjamiyati uchun **ikkita ko'ptarmoqli vebinlar** (mart va may oralig'ida) o'tkaziladi.

Har bir vebinar 1 soatdan iborat bo'lib, EULAR boshchiligidagi WebEx orqali uzatiladi va bir xil tarkib va ma'ruzachilardan iborat bo'ladi. Ikkita vebinar turli xil vaqt zonalaridagi ishtirokchilar qatnashuviga mostashtirilgan holda o'tkaziladi.

Vebinarlarda (sog'liqni saqlash mutaxassislari, shifokorlar va bemorlar tashkilotlari) erta tashxislash va erta murojaat qilishning ahamiyati haqidagi mavzular, turli nuqtayi nazardan muhokama qilinadi. Siz ushbu vebinlar haqida batafsil ma'lumotni EULARning rasmiy taklifnomasi orqali olasiz. Agar siz ishtirok eta olmasangiz, sessiyani keyinroq yuklab olishingiz mumkin bo'ladi.

### 2.1 “Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning” kampaniya xronologiyasi

Bu yilgi kampaniya faoliyatining asosiy sanalari bilan quyida tanishing:

Sanalar:

- **Mart:** Vositalarni yetkazib berish.
- **14–17-iyun:** EULAR kongressi Madridda, Ispaniyada.
  - **14-iyun:** “Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning” kampaniyasi kongress delegatlarini e'lon qildi.
  - “RTKLarni erta tashxislash bo'yicha EULAR tavsiyalari” nashri (TBC).
- **12-oktabr:** Butunahon artrit kuni.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birlgilikda kurashish**  
**#BugunoqBog'laning**

### **3.0 «Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning» kalit xabarlari**

Ushbu matn tariqasida tayyorlangan kalit xabarlari barcha ilmiy jamoalar uchun mo'ljallangan bo'lib, ulardan "Also kechiktirmang, bugunoq bog'laning" mavzusida muloqot o'tkazish yoki kampaniya harakatlari kabi tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Vaqtingiz yoki joyingiz yetarlicha bo'limasa, kalit xabarlarini yordamchi xabarlarga nisbatan ustun qo'ying.

#### **Kalit xabarlari**

- «Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning» kampaniya maqsadlari keng jamoatchilik, tibbiyot mutaxassislari, siyosatchilarga revmatik va tayanch-harakat tizimi kasalliklarini (RTKlar) erta tashxislash va davolanishdan o'z vaqtida foydalanish muhimligi haqida ma'lumot beradi.
- Erta tashxislash va davolanish imkoniyati, RTKlarning inson va jamiyatga kelgusida yetkaziladigan zarar va yuklarining oldini olish kaliti hisoblanadi.
  - Masalan, agar revmatoid artritni simptomlar boshlanganidan keyin 12 hafta ichidayoq davolash boshlansa, bu vaqt o'tishi bilan bo'g'imirlar yemirilishini minimum darajaga keltirishi va remissiya ehtimolini oshirishi mumkin<sup>1</sup>.
  - Bu kasallikka chalingan 4 kishidan 3 tasida fibromiyalgiya tashxisi qo'yilmagan. Tashxis qo'yishga esa o'rtacha 5 yil vaqt ketadi<sup>2</sup>.
  - Psoriatik artritni erta tashxislash va davolash kasallik oqibatlari yaxshilanishiga olib keladi<sup>3</sup>.
  - RTKlar bilan og'rigan odamlar orasida klinik tashvish va depressiyaning tarqalishi, umumiy aholi orasida tarqalganligiga nisbatan taxminan ikki baravar ko'pdir<sup>4</sup>.
- "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" – EULAR (Revmatizmga qarshi Yevropa Ligasi) tashabbusi bo'lib, uni EULARga a'zo bo'lgan barcha tarmoqlar, jumladan, ilmiy a'zo jamiyatları, sog'lioni saqlash mutaxassis uyushmalari va JABM tashkilotlari qo'llab-quvvatlashi bilan birgalikda, asosiy maqsadi – bu erta tashxislash va davolanishdan o'z vaqtida foydalanish muhimligini ta'kidlashdan iborat.

#### **Yordamchi xabarlar**

- Aholining qarish darajasi ortib borayotgani hisobiga 2035-yilga kelib, revmatoid artritning tarqalish holatlari ko'payishi kutilmoqda<sup>5</sup>.

<sup>1</sup> Van der Linden M.P.M., le Cessie S., Raza K. va boshqalar. Erta artritli bemorlarni baholashda kechikishning uzoq muddatli ta'siri. Artrit va revmatizm 62 (2010) 3537-3546

<sup>2</sup> Arnold, L.M., Klau, D.J. va boshqa, Fibromiliagianing tan olinishi va diagnostikasini yaxshilash. (2011) 86(5): 457- 46

<sup>3</sup> Kirkham, B, de Vlam K et al., Early treatment of psoriatic arthritis is associated with improved patient- reported outcomes: findings from the etanercept PRESTA trial. (2015) 33(1): 11-9

<sup>4</sup> Geenen R., Newman S., Bossema E.R. va boshqalar. Revmatik kasalliklar va tashvish yoki depressiya bilan og'rigan bemorlar uchun psixologik aralashuvlar. Eng yaxshi amaliyot va tadqiqot Klinik revmatologiya 26 (2012) 305–319.

Mavjud: [http://www.researchgate.net/profile/Johanna\\_Joke\\_Vriezekolk/publication/230622327\\_Rheumatic\\_diseases\\_and\\_anxiety\\_or\\_anxiety\\_or\\_depressions\\_or\\_depression/06004d](http://www.researchgate.net/profile/Johanna_Joke_Vriezekolk/publication/230622327_Rheumatic_diseases_and_anxiety_or_anxiety_or_depressions_or_depression/06004d).

<sup>5</sup> Ushbu zaiflashuvchi, surunkali holatning keng tarqalgan aholisi barcha bozorlarda ko'payadi keyingi 20 yil. Keysi Godbout. (2016): 17

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish**  
**#BugunoqBog'laning**

- RTKlar bilan faqat Yevropaning o'zida 120 milliondan ortiq odam aziyat chekadi – bu boshqa kasallik guruqlariga qaraganda ko'proqdir<sup>6</sup>.
- RTKlar barcha yoshdagи odamlarga, shu jumladan bolalar va chaqaloqlarga ta'sir qilib, kerakli davo muolajalari o'tkazilmasa, u yurish, zinapoyalarga chiqish, ovqat pishirish, shaxsiy gigiyena va ishlash kabi kundalik fadoliyatga ta'sir qilib – hayot sifati va jismoniy qobiliyatlarini susaytiradi<sup>7</sup>.
- Agarda Yevropa Ittifoqida, RTKlar bilan kasallangan odamlar uchun erta aralashuvlar kengroq tatbiq qilinganda, har kuni qo'shimcha bir million xodim ishda bo'lishi mumkin bo'lar edi<sup>8</sup>.
- Kampaniyaning ishga tushurilishi EULARning 70 yilligiga to'g'ri kelib, bu o'tkazilgan tadqiqotlar va tibbiyot mutaxassislari, shifokorlar va bemorlar o'rtaсидagi hamkorlikning 70 yilligini nishonlaydi.
- Qo'shimcha ma'lumot uchun EULAR veb-saytiga tashrif buyuring: [www.eular.org](http://www.eular.org)

### Butunjahon artrit kunining kalit xabarlari

- Butunjahon artrit kuni global tashabbus bo'lib, EULAR tomonidan boshqa-riladi va kengroq bo'lgan "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" kampaniyasining bir qismini tashkil qiladi.
- Butunjahon artrit kuni maqsadi bu RTKlar bilan xastalangan insonlar muommolari haqidagi xabardorlikni oshirish uchun odamlarni o'zaro birlashtirishdir va bu kun har yili 12-oktabrda nishonlanadi.
- Qo'shimcha ma'lumot uchun EULAR veb-saytiga tashrif buyuring: [www.worldarthritisday.org](http://www.worldarthritisday.org)

<sup>6</sup> Revmatik kasalliklar bo'yicha savollar va javoblar. EULAR. Mavjud: <http://www.eular.org/myUploadData/files/Q-and-A-on-RMDs.pdf>

<sup>7</sup> Kirkham, B, de Vlam K va boshq., Psoriatik artritni erta davolash bemorlar tomonidan yaxshilangan natijalar bilan bog'liq: etanercept PRESTA sinovidan olingan natijalar. (2015) 33(1): 11-9

<sup>8</sup> Artrit bilan ishslash. Artrit tadqiqotlari Buyuk Britaniya. Mavjud: <http://www.arthritisresearchuk.org/policy-and-public-affairs/reports-and-resources/reports/work-report.aspx>

#### 4.0 Brendlash va tasvirlar

*Kampaniyani qo'llab-quvvatlash maqsadida ishlab chiqilgan materiallar shaklidan foydalanishingiz yoki uni moslashtirishingiz mumkun*

Kampaniya logotipi kampaniya davomida, siz rejalashtishni istagan tadbirdarda foydalanishingiz uchun ishlab chiqilgan. Moslashtirish/tarjima qilish uchun yuqori aniqlikdagi tasvirlar va badiiy fayllar mavjud.

**Maslahat:** kalit xabarlari materiallar ishlab chiqishni boshlash uchun ajoyib joydir.

#### Kampaniya logotipi



Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish  
#BugunoqBog'laning

## 5.0 RTKLarning devoriy diagrammasi

Bemorlarni qabul qilganingizda foydalanishingiz mumkun bo'lgan o'quv devoriy diagrammasi ishlab chiqildi.

Ushbu san'at tasvirli fayllarni tarjima qilish va moslashtirish uchun mo'ljallangan.

Bemorlar bilan muhokama qilishda yordamchi sifatida uni chop etishingiz va klinikangiz devoriga osib qo'yishingiz mumkin.



"Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" – EULAR (Revmatizmga qarshi Yevropa Ligasi) tashabbusi bo'lib, uni EULARga a'zo bo'lgan barcha tarmoqlar, jumladan, ilmiy a'zo jamiyatlari, sog'iqlini saqlash mutaxassis uyunshmalari va JABM tashkilotlari qo'llab-quvvatlashi bilan birgalikda, asosiy maqsadi bu erta tashxislash va daillarga asoslangan davolashdan o'z vaqtida foydalanish muhimligini ta'kidishdan iborat

Revmatik va tayanch-harakat a'zolari kasalliklarining 200 ga yaqin turi mavjud bo'lib, u barcha yoshdagisi insonlarga ta'sir qilishi mumkun.

Erta tashxislash va erta davolanishga kirishish, RTKLarning inson va jamiyatga kelgusida yetkazadigan zarar va yuklarining oldini olish kaliti hisoblanadi.

Agar o'zingizda RTKga shubha qilayotgan bo'lsangiz, mutaxassisiga murojaat qiling.



RTKLarning davolashda quyidagi mutaxassislarni jaib qilish mumkun:

Umumiy amaliyot shifokorlari, Revmatologlar, boshqa soha mutaxassislari – fizioterapevtlar, terapevtlar, hamshiralr, O'g'riq bo'yicha mutaxassislar – fizioterapevtlar, pediatrlar, ijtimoiy ishchilar.

Bemorlar RTKLarning sohasidagi oxirgi ilmiy yutuqlarga asoslangan davolanishdan kechiktirlmagan holda foydalanish huquqiga egadirlar.

EULARning Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning aksiyasi bilan RTKLarning haqidagi ko'proq ma'lumot olish va mahalliy

- JABM bemor tashkilotlari
- Tibbiy/Ilimiy tashkilotlari
- ...erta murojaat va tashxislashni yo'iga qoyish mumkun.

Sog'iqlini saqlash mutaxassislari

Bemorlar RTKLarning sohasidagi oxirgi bilan bog'lanib ilmiy yutuqlarga asoslangan davolanishdan kechiktirlmagan holda foydalanish nhuquqiga egadirlar.

## #BugunoqBog'laning

## 6. Tadbir bo'yicha ko'rsatma

*Ushbu bo'limda kampaniya tadbirlarini rejalashtirish bo'yicha ko'rsatmalar, jumladan, siz o'tkazmoqchi bo'lgan tadbirlar turiga misollar keltirilgan.*

«Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning» dasturini qo'llab-quvvatlash maqsadida, tadbirni rejalashtirish yoki qo'llab-quvvatlash istagi bilan siz kampaniya haqidagi ma'lumotni RTK hamjamiyati orasida tarqatishga yordam berishingiz mumkin.

Tadbirni tashkil qilishda sizga boshqa mahalliy ilmiy va sog'liqni saqlash mutaxassis tashkilotlari va bemor tashkilotlari bilan hamkorlik qilishingizni qat'iy tavsiya qilamiz.

Shuningdek, siz mahalliy JABM tashkilotingiz bilan bog'lanib, ular jamoatchilikni xabardor qilish tadbirini rejalashtirayotganini bilishingiz va ularga beradigan yordamingiz haqida aniqlashtirishingiz mumkin. Mamlakatingizda tadbirni qo'llab-quvvatlash yoki o'tkazish bo'yicha quyidagi ba'zi ko'rsatmalarni topishingiz mumkin.

### **8.2 Mahalliy JABM tashkilotingiz tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarni qo'llab-quvvatlash**

Agar sizning mahalliy JABM tashkilotingiz jamoatchilikni xabardor qilish tadbirini o'tkazayotgan bo'lsa, ilmiy tomonidan yordam berishning bir necha yo'llari mavjud:

1. Mahalliy JABM tashkilotingiz bilan bog'lanib, ularning rejalarini haqida xabardor bo'ling.
2. Ertas tashxislash bo'yicha hamkorlik qilish haqida o'tkaziladigan boshlang'ich muhokamalari qatnashing.
3. Mahalliy JABM tashkilotlari tomonidan tadbir qo'llanmalari tayyorlanish jarayonida, erta tashxislash bo'yicha foydali tadqiqot ma'lumotlarining bilan ulashing.
4. Tadbir va ommaviy axborot vositalarida nutq so'zlash uchun ilmiy vakil sifatida chiqishni o'ylab ko'ring.

### **8.3 O'z tadbiringizni o'tkazish haqida**

Quyida tadbirni tashkil qilish bo'yicha ba'zi ko'rsatmalarni topishingiz mumkin:

#### **1. Mahalliy sog'liqni saqlash mutaxassisishi/shifokorlar bilan boshlang'ich uchrashuvni o'tkazing.**

Bu sizga g'oyalarni o'ylab topish va tadbiringizni tashkil qilish bo'yicha, birlgilikda ishlashga yordam beradi.

#### **2. Tashkil etiladigan tadbir turini belgilang.**

Siz o'z mamlakatingizda RTKlarni erta tashxislash va ularni yuborish masalalarini muhokama qilish maqsadida RTK hamjamiyatining asosiy vakillari ishtirokida davra suhbati tadbirini o'tkazishningiz mumkin:

- Anjuman yoki davra suhbati o'tkazish orqali manfaatdor tomonlarni, safdoshlaringizni va boshqa sog'liqni saqlash mutaxassislarni jaib qilib, erta tashxislashni qo'llab-quvvatlash uchun katta imkoniyat yaratishingiz mumkin.
- Ertas tashxislash va tibbiy yordam olish muhimligi haqidagi mavzularni yoritishda asosiy ma'ruzachilarini qo'shing, shuningdek, tinglovchilarga savollar berish imkoniyatini yaratiting.
- Siz erta tashxislash bo'yicha so'nggi tadqiqot natijalarini va tegishli statistik ma'lumotlar bilan bo'lishishingiz mumkin.
- Siz tadbir diqqatini ma'lum bir mavzu yoki holatga yoki yanada kengroq bo'lgan barcha RTKlarning erta tashxislash mavzusiga qaratishingiz mumkin.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birlgilikda kurashish**  
**#BugunoqBog'laning**

- Tadbiringiz doirasida ishtirokchilarni kichik guruhlarga ajratib, aqliy hujum yoki munozaralardan iborat seminar mashg'ulotlari yoki seksiyalarni o'tkazishingiz mumkun.
- Siz tadbirga siyosatchilar, jurnalistlar va sog'liqni saqlash mutaxassislarini taklif qilishingiz mumkun.
- Bu borada Portugaliyaning Lissabonda qilingan ishlariga misol tariqasida 2.3-bo'limiga qarang.

### **3. Tadbirni o'tkazish vaqtini belgilang.**

Global kampaniyaning ishga tushurilishi EULAR kongressida (14-iyun kuni) bo'lib o'tadi, Ispaniyada ham bir vaqtning o'zida o'tkaziladi. Mahalliy tadbirningizni muhim ahamiyatga ega bo'lgan Butunjan hon artrit kuni yoki milliy xabardorlik kunida o'tkazishingizni tavsiya qilamiz.

Tadbir vaqt ham muhim ahamiyatga ega – hamma asosiy mehmonlar va ma'ruzachilaringizning davra suhbatini yoki anjumanda ishtiroki ta'minlashiga e'tibor qarating.

### **4. Tadbir o'tkaziladigan joyni belgilang.**

Agar siz davra suhbatini yoki anjumanni rejalashtirmoqchi bo'lsangiz, uni quyidagi joylarda o'tkazilish maqsadiga muvofiq:

- Uchrashuvlar zali, anjumanlar zali yoki shunga o'xshash.
- Ma'ruzachilar uchun ajratiladigan joylarni va tinglovchilaringiz uchun esa **anjuman stoli** atrofi (davra suhbatini yoki **auditoriya uslubida** joylashtirishni belgilab oling).
- Tadbiringiz doirasida ishtirokchilarni kichik guruhlarga ajratib, seksion mashg'ulotlar va seminarlar o'tkazish uchun yetarlicha joy va stol-stullar ajratishni inobatga oling.

### **5. Odamlarni tadbirdingizda ishtirok etishga taklif qiling.**

RTK hamjamiyatining asosiy a'zolarining ishtiroki haqida o'ylab ko'ring. Tadbiringizda qatnashuvchi ma'ruzachilarining soni va shaxsi haqida o'ylab, ularni oldindan ogohlantirib qo'ying.

Siz odamlarni elektron pochta orqali taklif qilishingiz mumkin. Taklifnomalar qisqa, aniq va ixcham bo'lishi va quyidagi tafsilotlardan iborat bo'lishi lozim:

- Tadbirning joyi, sanasi va vaqtini.
- Uchrashuv kun tartibi.
- Kiyinish dress kodini bo'yicha tafsilotlar (agar kerak bo'lsa).
- Ishtirokchilarga tadbir va kampaniya haqida eslatma va yangiliklarni jo'natish maqsadida, ulardan taklifnomaga javob tafsilotlari va aloqa ma'lumotlarini so'rang.
- Siz bilan bog'lanishlari uchun odamlarga aloqa ma'lumotlaringizni bering.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish**  
**#BugunoqBog'laning**

## 7.0 Butunjahon Artrit kuni

*Ushbu bo'limda 2017-yildagi Butunjahon artrit kuni faoliyatiga oid ma'lumotlar berilgan bo'lib, u yanada kengroq bo'lgan «Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning» kampaniyasiga mos ravishda yoritilgan.*

Butunjahon Artrit Kuni (BAK) – bu revmotoid artrit va osteoartrit kabi yaxshi tanilgan kasalliklardan tortib to kamchilikka tanilgan fibromiyalgiya kabi RTKLarning barcha shakllari bilan xastalangan insonlar muammolari haqida xabardorlikni oshirishda odamlarni o'zaro birlashtiruvchi global tashabbusdir. Har yili 12-oktabr BAK kuni deb tan olingan. BAK yanada kengroq bo'lgan «Also kechiktirmang, bugunoq bog'laning» kampaniyasining bir qismi bo'lib hisoblanadi.

BAK maqsadlari:

- Tibbiy hamjamiyat, RTKlar bilan xastalangan insonlar va keng jamoatchilik orasida RTKlar haqidagi xabardorlikni oshirish.
- Qaror qabul qiluvchilarni RTKLarning yuki va ularni yengillashtirish bo'yicha ko'rildigan chora-tadbirlar haqida xabardorligini oshirish orqali ommaviy siyosatga ta'sir o'tkazish.
- RTKli barcha odamlar va ularning g'amxo'rларини ular uchun mo'ljalangan keng ko'lamlı qo'llab-quvvatlash tizimi mavjudligi haqida xabardor qilish.

**Butunjahon artrit kuni sa'y-harakatlarning markazida – bizning kampaniya videoroligini tayyorlash va tarqatish o'rın tutadi.**

Video-erta tashxislash va to'g'ri davolanishning ahamiyatligini yana bir bor ta'kidlab, odamlarni sog'liqni saqlash mutaxassisini bilan ertaroq bo'g'lanishga undaydi. Ushbu video BAK veb-saytida va ijtimoiy media kanallarida 12-oktabrdan boshlab ko'rsatila boshlaydi va mahalliy faoliyattingizda foydalanishingiz uchun sizga taqdim qilinadi (12-oktabrgacha embargo ostida).

Xabardorlikni oshiruvchi kuchli platformani yaratish maqsadida «Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning» tadbirlarini Butunjahon artrit kunida o'tkazishni ko'rib chiqing. Biz sizni rasmiy BAK veb-sayti, Facebook va Twitter kanallari orqali qo'llab-quvvatlay olishimiz uchun har qanday kampaniya faoliyattingiz haqida bizga xabar bering.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birgalikda kurashish**  
**#BugunoqBog'laning**

## 8.0 Foydali aloqa ma'lumotlari

Quyida foydali aloqalar ro'yxati keltirilgan. "Aslo kechiktirmang, bugunoq bog'laning" aksiyasi yoki uni qanday qo'llab-quvvatlashingiz haqida savollaringiz bo'lsa, bizga murojat qiling.

**Maria Batziou, EULAR Sekretariati**

**Loyiha koordinatori**

Tel: +30 694 623 2776

Email: [Maria.Batziou@eular.org](mailto:Maria.Batziou@eular.org)

**Birte Gluesing, EULAR Sekretariati**

**Loyiha menejeri**

Tel: +49 228 962 12 83

Email: [Birte.Gluesing@eular.org](mailto:Birte.Gluesing@eular.org)

**Lydia Tchambaz, EULAR Sekretariati**

**Ijrochi direktor o'rnbosari**

Tel: +41 44 716 30 33

Email: [Lydia.Tchambaz@eular.org](mailto:Lydia.Tchambaz@eular.org)

**Ursula Aring, EULAR Sekretariati**

**Aloqa menejeri**

Tel: +41 44 716 30 38

Email: [Ursula.Aring@eular.org](mailto:Ursula.Aring@eular.org)

**Barchaga yordamingiz uchun tashakkur bildiramiz!**

Biz siz bilan kelgusida erta tashxislash haqidagi xabardorlikni oshirish va RTKlar bilan kasallanganlarning hayot sifatini yaxshilashga yordam berish uchun hamkorlik qilishni kutib qolamiz.

**Revmatik & tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qarshi birlgilikda kurashish**  
**#BugunoqBog'laning**

 100179. Toshkent shahar, 2-Chimboy ko'chasi,  
Talant tor ko'chasi, 3-uy (RIPIATM)

 +99871 229-38-40

 +99855 503-06-82

 [pediatriya.uz](http://pediatriya.uz)

 Republican Specialized Scientifical Practical Medical  
Center of Pediatrics  
<http://pediatriya.uz>